

Asosiy Ishtirok Etuvchilar:

So'laymon ota - cho'pon, 70-75 yoshlarda.

G'ulom aka - urush invalidi, choyxonachi, 68-70 yoshlarda.

Zebi xola - So'laymon otaning xotini, 45-50 yoshlarda.

Nazarov - vrach, 45-50 yoshlarda.

Sodiq - aspirant, 30 yoshlarda.

Anvara - 30 yoshlarda.

Mamarasul - ferma mudiri, 35-40 yoshlarda.

Zarifa - Sodiqning xotini, 22-25 yoshlarda.

Zarifaning ota-onasi, kudedagi yigitlar, Galinaning qishlog'idagi ayollar, quruvchi yigitlar, selKjsovet raisi, So'laymon ota kolxozidagi pravlenie a'zolari va boshqalar.

Birinchi Parda

Birinchi Ko'rinish

Kolxozi raisining kabinet. Hamma pravlenie a'zolari yig'ilgan. So'laymon ota ham shu yerda. Bir chekkada do'ppisini o'ynab o'tiribdi. Raisning qo'lida qandaydir qog'oz. Hammaning ko'zi unda. Nihoyat rais boshini ko'taradi.

Rais. O'rtoqlar, pravlenie nomiga pravlenie a'zosi, kolxozi ferma mudiri va sakkizta ferma xodimidan ariza tushgan. O'qib beraman. (O'qiy boshlaydi.) "Biz "G'alaba" kolxzoning chorvachilik fermasi xodimlari, ya'ni ferma mudiri Mamarasul Inog'omov, sut sog'uvchilar Oysha Sottieva, a'lobush Inog'omova, cho'ponlar Berdivoy Omonov, Mirholiq Mirhaydarov va boshqalar - hammasi bo'lib sakkiz kishi - ushbu arizani yozdik shul mazmundakim, keyingi yillarda kolxzozimizda chorvachilik ishlari oqsab qoldi. Sut kamayib, suyulib ketdi. Sog'in sig'irlarning ko'pi... (Rais xatni o'qishdan to'xtaydi va alanglab kimnidir qidiradi.) Mamarasul Inog'omovich? (Eshik yonida do'ppisini changallab o'tirgan lo'ppi yuzli yigit boshini ko'taradi.)

Mamarasul. Labbay!

Rais. Sig'irmas sigir!.. Sig'irning nimaligini ayollar chiqib ketganda aytaman.

Mamarasul. Nervnichit qilib yozdikda, kechirasiz.

Rais. Asab buzilsa shunaqa, tildan uradi. Xo'p... (O'qiy boshlaydi.) Sut kamayib, suyulib ketdi. Sog'in sig'ir... sigirlarning ko'pi tappa suttan qolib, ko'pik qaytarib yotibdi.

So'laymon ota. Mamarasul! Xafa bo'limagin-u, uka, ayb senda, mol boqishni bilish kerak. Sig'ir deysanmi, mayli nima desang degin-u, lekin mol boqishni bilish kerak. Mol jonivor bamisol tili chiqmagan bola. Ming marta aytdim senga - atrofida girdikapalak bo'lmasang bo'lmaydi deb. Girdikapalak bo'lsang, yemidan, suvidan xabar olib tursang, mana man deb yelinini o'zi tutib turadi.(Mamarasul boshini quyi soladi. Rais arizani o'qishda davom etadi.)

Rais. Yaqin zamonda dumini do'ng qilib... (Mamarasulga) Bu nima deganingiz?

Mamarasul. Dumini dikkaytiribda!..

Rais. ...dumini do'ng qilib, shataloq otib yurgan buqachalar munkayib qoldi. Ko'zlarida yosh. Yozuvchi bo'lib keting-ge,

Mamarasul!

Mamarasul. Ha endi, rostida.

Rais. Kuyikkan sig'irlar... yana sig'irlar, kuyikkan sigirlar ko'payib, molxona alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Negaki, bir tonnayu yuz kilo keladigan Olabuqa ozib, chopmaydigan bo'lib qoldi. Salga hansirab, ko'pik tashlaydi. Ishonmasalaring tekshirib ko'ringlar. Masalan, kuni kecha Estoniyadan keltirilgan targ'il, sig'irga sakrayman deganda, oyogi' chalinib ketib (albatta madorsizlikdan), shalop etib semon polga yiqildi. Natijada bir shoxi sindi. Hammangizga ma'lum, shu Olabuqa, ya'ni shu zotli jonivor rayonda, nainki rayonda, oblastda ham birinchilar qatorida bo'lib, bir necha marta medalKj olgan edi. Hozir esa o'zining asosiy ishiga yaramay qoldi.

Ovoz. Shuni yozmasangiz bo'lardi. Mamarasul uka...

Mamarasul. Menam yozmaylik devdim. Oysha xola oyog'ini tirab turib oldi. Uch kundan beri g'unajini kuyikib yotibdi. Buqa yo'q. Bugun Qumariqqa yetaklab ketdi.

Rais. Qo'ychilikda ham ahvol yaxshi emas. Kolxozi atrofida o't qolmadi. Hamma qo'yłarni qirga haydadik. Qirda qurg'oqchilik. O't kam. Bo'rdoqilarning dumbalari kirtayib qoldi. Sotgani odam uyaladi. Bu hakda bir necha marta kolxozi raisi o'rtoq Abdulla aka Ismoilovga aytildi. Lekin hech qanday chora ko'rilmadi. Bizning qat'iy fikrimizcha birinchi va asosiy chora shuki, qishlog'imizning oqsoqoli So'laymon otadan qo'yłarni tortib olish kerak.

So'laymon ota. Iya, Mamarasul?! Seni nima jin urdi, uka?

Rais. So'laymon ota, siz tinchaning. Arizani oxirigacha o'qib bo'lay, keyin gapirasiz. (Arizani o'qishda davom etadi.) Kolxozi qo'yłari ozib, cho'p bo'lib turganda bu kishining dumbalariga, ya'ni qo'yłarining dumbalariga tirgovich qo'yib yurishlari - kolxozi ustaviga xilof. Ustavda har bir kolxozchi oilasi bilan o'ntagacha shaxsiy qo'yga ega bo'lishi mumkin deyilgan. So'laymon otada to'rt yuzdan oshib ketdi. Shul masalani tezda hal qilib, kolxozi chorvachiliginu yuksaltirishga yordam berishingizni so'raymiz. Yana bir gap. Kuni kecha, ya'ni shanba kuni kechasi, soat birlarda ikkinchi brigadaning maydonida beda g'aramidan bir eshak arava beda o'g'irlangan. Bu beda ishonchli xabarlarg'a qaraganda, So'laymon otaning qo'rasiga tushgan. Bu masala ham tekshirilib, aybdor jinoiy javobgarlikka tortilishini talab qilamiz..."

So'laymon ota. Chindanam, Mamarasul, jinni bo'p qopsan!

Rais. So'laymon ota!

So'laymon ota (unga parvo qilmay). Beda qo'ramga tushgani rost. Haydaralining o'zi obkeb berdi. Seni jin urmasa, meni o'g'riga chiqarasanmi. Voi esipase?

Rais. So'laymon ota! Agar jim bo'lmasangiz, masalani sizsiz hal qilamiz. O'tiring!

So'laymon ota. Ahmoq... (O'tiradi.)

Rais. Xo'sh, nima deysizlar?

1-ovozi. Ahvol chatoq ekan, bilmagan ekanmizda...

2-ovozi. Menda bitta savol bor. Mamarasulga. Mumkinmi?

Rais. Marhamat.

2-ovozi. Bir shoxi singan haligi...

Mamarasul. Olabuqa.

2-ovozi. Ha, o'sha Olabuqa, nima endi butunlay ishdan chiqdimi? Bunchalik emasdirdi? Bizning bir sigirimiz bo'lardi. Juda suzong'ich. Shuni ikkala shoxi sinib qoldi dalada. Suzishgandirda. Shoxsiz ham sut beravurdi binoyidek. Men mol do'xtirmasman, o'qituvchiman. Lekin bir shoxi sinsa ham haligi Olabuqa o'z ishini qilaverar deyman?

Mamarasul. Bilmadim, hozircha kasal. Tuzalgandan keyin tekshiramiz. O'rtoqlar, gap hozir buqada emas. Asosiy masalani hal qilib beringlar. Judayam qynalib ketdim.

3-ovozi. So'laymon otadan qo'ylarni tortib olib bo'lmaydi.

Mamarasul. Nega? Kim bo'ptiki u odam, hammamiz qo'rquamiz?

3-ovozi. Uyat senga, Mamarasul, bunday deyish. So'laymon otanig kimligini kolxozda hamma biladi. Qishloqning otasi u. Maslahatgo'y. Biron ma'raka usiz o'tmaydi. Keyin butun umri kolxozda o'tyapti. Sen hali onangni qornida eding u kolxoz tuzayotganda.

So'laymon ota. Onasiyam ahmoq uni tuqqan...

Mamarasul. So'laymon ota! Meni haqorat qilsangiz mayli, onamga til tegizmang... Militsiyaga aytasam, naq xuligan deb o'n besh sutkaga qamaydi.

So'laymon ota. Ana! Ana! Aytmovdimmi ahmoqsan deb. Bo'lmasa shunday deysanmi! Hoy! Meni qamaydigan melisa hali onasidan tug'ilganamas!

Rais. So'laymon ota! Mamarasul! Majlisdamisizlari o'zi yo ot bozordami? (Mamarasulga). Maqsadga ko'ching.

Mamarasul. Maqsadga ko'chsam... Qo'ylarni So'laymon otadan tortib olish kerak. Sotsin. Kolxozi qo'ylariga qo'shib yuboramiz. U ham tinch, biz ham. Qariganida qir oshib yurmasin. Yaqin atrofda biron ta mol o'tlaydigan joy qolmadni uning dastidan. Har bahor shu. O'zining qo'ylari bo'lsa ham mayli edi. Yettiyot begona odamniki! Tag'in u bormi, yo'qmi, hech kim bilmaydi.

1-ovozi. Ammo-lekin bir hisobda boboya qoyil qolish kerak. Ikkita qo'yni to'rt yuzga chiqaribdimi ofarin! Qani endi kolxozning chorvasi shunaqa ko'paysa? Tag'in o'qimagan odama?

Mamarasul. Nima demoqchisiz shu bilan? O'qigan bo'lsang ham hayf senga demoqchimisiz?

1-ovozi. Ho', uka! O'zingni bos. Hali unga kelganim yo'q.

Mamarasul. O'g'rincha mol boqishni men ham bilaman. Lekin qaerdan o'g'irlayman! Bir cho'ntagimdan o'g'irlab ikkinchisiga solamanmi?! Kolxozi ustavida...

2-ovozi. Muncha ustav deysan? Beustav o'ttiz yildan beri bitta ham qo'yni xato qilmay boqib kelyaptimi - So'laymon otaga rahmat! Undan o'rganish kerak. O'g'rincha boqib nima qilibdi? Haligi arizangdag'i bir arava bedami?

Mamarasul. Kunjarayam. O'zim bergenman.

2-ovozi. Ana! Bedaniyam brigadirning o'zi olib kelib bergen. So'laymon otaga kim yo'q deya oladi? Hech kim! Lekin rais, Mamarasulning arizasida jon bor. Kolxoza ikkita ferma bo'lib qoldi. Bittasi kolxozniki. Bittasi So'laymon otaniki. Qaerdan qo'yning sutini topish mumkin? So'laymon otanikidan, qaerda qo'y suditan kart dumbadek qatiq qilinadi? So'laymon otanikida. Rayondan kelib olib ketishadi. Qo'ylar ham o'zi havasga boqilgan qo'ylar. Hammasing bo'yndi qizil lenta, qo'ng'iroq. Jing'ir-jing'ir... Chet eldan kelgan mehmonlarga shu qo'ylarni ko'rsatdim ikki marta kolxozniki deb. Qoyil qolib ketishdi.

Mamarasul. O'zimiznikilar ham yomon emas. Juda munaqa oshirmang, Suvonqul aka! Ko'ngil o'ksir ekan.

1-ovozi. Ko'ngling o'ksisa nima qillarding bunaqa ariza yozib? Vahm bosib ketdiku yurakni!

Mamarasul. Ha endi, tezroq hal qilinglar, dedikda.

Rais. Xo'p! Masala ravshan. Kimda kim So'laymon otaning qo'ylari kolxoza o'tkazilsin desa, qo'l ko'tarsin. (Mamarasul, keyin boshqalar qo'l ko'tarishadi. Bitta Suvonqul aka ko'tarmaydi.) Suvonqul aka, nima, siz qarshimisiz?

Suvonqul. Betarafman. Bordiyu, o'sha ikkita qo'yini tashlab ketgan yigit urushdan omon qaytgan bo'lsa, aylanib kelib qolsa, So'laymon otaning yuziga qanday qaraymiz? Axir, yigirma yil, yigirma besh yil deganda uyiga kirib kelganlar bo'lidi!

Hamma jimb qoldi.

So'laymon ota. Ha, balli. Ichlaringda bitta aqli odam bor ekan. Rahmat, Suvonqul uka. Otangga o'xshabsan, rahmat. Endi Mamarasul, fermaning arizasiga kelganda, gap shu. Mani kolxoza beradigan qo'yim yo'q. Mana shu qo'ylarni deb yuribman. Maskopgayam bor arzangni ko'tarib. Mani gapim shu. (So'laymon ota zarda bilan chiqib ketadi. Yana o'rta ga jumlilik cho'kadi.) Mamarasul. Endi nima qilamiz, Abdulla aka?

1-ovozi. Dard qilamiz! Cholni xafa qilib qo'yidikku?!

Rais. So'laymon ota bilan men o'zim yana gaplashaman. Mamarasul Inag'omovich, manavi ahmoqona arizangizni yirtib tashlang. Arxivga tushib qolsa ustimizdan kulishadi. Majlis tamom. (Hamma o'rnidan turadi).

Parda

Ikkinchi Ko'rinish

Sahna ayvondan iborat. Bir yog'i hovliga chiqadi, bir yog'i uyga tutashgan. Uyning eshigida qulf osig'liq. To'rda pastak yog'och so'ri. So'laymon ota ayvonga kirib, xayol bilan so'riga o'tiradi. Nimanidir axtarib, hammayoqqa qaraydi. Ko'zi qulflog'liq eshikka tushadi. Ayvon ustuniga osig'liq kalit bilan eshikni ochib, xonaga kirib ketadi. Ko'p o'tmay bir bo'g'cha ko'tarib chiqadi. So'ri ustida uni ochadi. Bo'g'cha xotinining kiyimlaridan iborat. Sochxon, paranji, eski mahsi... dorpech... Chol ularni birpas ko'rib taxlaydi, bo'g'chani tugadi.

Yana xonaga kirib, eski bir qutini ko'tarib chiqadi. Uning ichini titkilaydi. Kandaydir qog'ozlar, xatlar ichidan kichkina tugun chiqadi. Qidirgan narsasi shu edi. Shoshib ochadi. Bu yangi chust do'ppi, shohi qiyiqcha. Chol do'ppini qo'liga olib, ohista so'riga o'tiradi. Qulog'liga xotinining ovozi eshitiladi: "Dadasi! Hoy, dadasi!" Chiroq asta-sekin o'chib, sahna qorong'ilashadi. Yana shu ayvon. Lampa-chiroq yonib turibdi. So'rida Zebi xola yotibdi.

Zebi xola (yo'talib). Dadasi!.. Ho, dadasi! (Sahna orqasidan So'laymon otaning ovozi eshitiladi: "Hozir!") Nima qilyapsiz?

Buyoqqa keling.

So'laymon ota kiradi. Qo'lida choynak, piyola.

So'laymon ota. Juda besabrsanda. Choy damladim. Pamil choy.

Zebi xola. Pamil choy? Qaerdan oldingiz?

So'laymon ota. G'ulomcho'loq berdi. Shahardan olib chiqibdi. Demak choy chiqibdimi, hali zamон to'qchilik bo'lib qoladi. Mana ich, achchiqqina damladim. (Xotiniga choy beradi, so'ri zixiga o'tiradi.)

Zebi xola. Olmachoy ichaverib, pamil choyning mazasini unutibman. Yaxshi choy bo'pti, dadasi, rahmat. O'zingiz ham iching. So'laymon ota. Ichaver, ichaver.

Zebi xola. Dadasi! Sotvoldi kelmadimi?

So'laymon ota. Yana Sotvoldi deysana? Xat kelsa, yugurib olib kelardi. Muncha endi o'shani o'ylayvermasang? O'zingni o'yla. Zebi xola. Roppa-rosa ikki yil bo'lди. Na xat bor, na xabar.

So'laymon ota. Tirik bo'lsa xat ham yozadi, o'zi ham keladi. G'ulomcho'loqning gapini eshitdingku, dushmanning orqasiga tushib qolsa, kimdan xat berib yuboradi? Buning ustiga Stalingraddan keyin fashist degani quyondek qochib turibdi. Uni quvsinmi No'monjon yo senga xat yozsinmi? Odamni xunob qiladigan gapni gapisasanda.

Zebi xola. Siz xunob qilmay gapisasiz. Sizning gapingizga ilon po'st tashlaydi.

So'laymon ota. To'g'rida. Qani o'zing ayt, xunob bo'lmay nima qilay? O'zingni o'yla, tezroq oyoqqa tur. Rasmana gapni aytganda, No'monjonga biz kim? Nega endi doim bizni o'ylashi kerak ekan, fashist buyokda qolib?

Zebi xola. Voy, voy, nima deyapsiz o'zi? Axir men uni o'g'lim deganman. Ko'z-qoshi shundoq Tursunimning o'zi. O'zim uylantirmoqchi edim uni. Qiz topib qo'yanman. Ortiq otinning qizi. Biram ko'hlik bo'lgan. Ko'rgan uni No'monjonning o'zi ham. Mayli, degan.

So'laymon ota. Mayli degan?

Zebi xola. Ha.

So'laymon ota. Tavba? Qachon ulgurgan eding? Doim sigir-buzoqni ketida edingku?

Zebi xola. Xayrli ishga vaqt topiladi. Anavi qutini olib keling...

So'laymon ota. Qaysi qut?

Zebi xola. Mening qutimnida. (So'laymon ota xonaga kirib, olib chiqadi. Zebi xola undan kichkinagina tugun oladi. Ochadi.

Do'ppi bilan shohi qiyiq.) No'monjonga atab oldim buniyam!

So'laymon ota. Obbo seney. Yaxshi, yaxshi.

Zebi xola. Siz bo'lsangiz, kimmiz unga deysiz. Urushdan keyin kelaman degan, sizlar bilan turaman, degan. Kelmasa... kelmasa... (Yig'laydi.) Sizni kimga tashlab ketaman? Huvillagan hovlida bir o'zingiz...

So'laymon ota. Iyya, iyya! Jinni bo'ldingmi? Nima deyapsan o'zi, xotin? Isitmang yo'qmi?

Peshanasiga qo'lini qo'yadi.

Zebi xola. Sezib turibman... ketadiganga o'xshayman, dadasi...

So'laymon ota. Nafasingni sovuq qilma! Odam cho'chir ekan.

Zebi xola. Nima qilay... meni kechiring... Oldin men ketsam, tinch bo'laman. O'zingiz ko'masiz.

So'laymon ota. Ozgina kasal bo'lib, rosa ezma bo'lib qolding, xotin. Bemaza gaplaringni yig'ishtir. (Qo'lini olmoqchi bo'ladi.)

Zebi xola. Yo'q, olmang. Shundoq o'tiring, qo'lingiz biram issiq.

So'laymon ota. Issiq degin? Bemavrud gapirding bu gapni, xotin. O'ttiz yil ilgari qayyoqda eding?

Zebi xola. Achinyapsizmi?

So'laymon ota. Yo'q. Yaxshi yashadik, xotin, Tohir-Zuhra bo'lmasak ham totuv yashadik. Sen nima deysan o'zing? Ha, yaxshi yashadik.

Zebi xola. Men ham shu.

So'laymon ota. Sen bilan hech boshim egilmadi. Shirin gapingni ayamading. Qozonimiz doim osig'liq turdi. Yaxshi yashadigu, lekin jinday achinadigan joyim bor.

Zebi xola. Nima?

So'laymon ota. To'yimiz esingdami?

Zebi xola. Ha.

So'laymon ota. Go'shangaga kirayotganimda rahmatli yanga, Xolposhsha xola uch kun tegmang Zebiga, uyat bo'ladi, dedi. Men ahmoq qulq solib o'tiribman. Shunga achinaman.

Zebi xola. Quyilmadingiz, quyilmadingiz.

So'laymon ota. Ha, yoqib ketdi-a, o'zingga ham?!

Zebi xola. Bo'ldi, ensamni qotirmang, sizdan doim bemaza gap chiqadi.

So'laymon ota. Bo'ldi, bo'ldi, qizarma. Hali ham baliqdaksan.

Zebi xola. Bo'ldi dedimku.

So'laymon ota. Bo'ldi, bo'ldi. Hazil qildimda, xotin. Ammo o'limni xayolingga keltirma. Hali ko'p yashaymiz. Do'xtir, tuzalib ketadilar, dediyu.

Zebi xola. No'monjonning to'yini ko'rsam devdim.

So'laymon ota. Ko'rasan, keladi u. Shunaqangi to'y qilaylikki, butun Zarkat gumburlab ketsin. Hali u bolali-chaqali bo'ladi. Ularni kim boqadi, kim qaraydi o'zing bo'imasang? O'zing boqasan. Bolalar ko'p bo'ladi. Fotima-Zuhra, Hasan-Husan, Tohir-Zuhra... Ehha... Hisobimi yo'qotib qo'yamiz. Bittasi sening tizzangda bo'lsa, bittasi mening tizzamda bo'ladi. Bir kuni sen cho'pchak aytasan, bir kuni men... "Ming bir kecha" bo'lib ketamiz ikkalamiz. Juda cho'pchak yetmasa o'zimizni cho'pchak qilib beramiz. Cho'pchaqdan qaerimiz kam? Bir bor ekan, bir yo'q ekan, yaqin o'tgan zamonda, Zarkat degan tomonda, bir xushtan cho'pon bo'lgan ekan. Uning oy desa oydek, kun

desa kundek, aqli ko'zidan marvariddek tomib turgan xotini bor ekan. Ular juda totuv, ahil yashashgan ekan. Erining gapini xotini ikkita qilmas ekan, xotinining gapini eri... Eshityapsanmi? Zebi? (Xotiniga qaraydi va cho'chib ketadi.) Zebi! Zebi! Jonginam Zebi! Meni kimga tashlab ketding! Zebi! (Yig'lab yuboradi.)

Parda

Sahna yorishadi. So'laymon ota do'ppiga tikilganicha o'tiribdi. Keyin boshini ko'taradi. Xatlarni yig'ishtirib, bir qo'yniga do'ppi, qiyiqchani tugib, ikkinchi qo'yniga soladida, ayvondan chiqib ketadi.

Parda

Uchinchi Ko'rinish

Tolzor. Kichkina choyxona. Yonida buloq. Uch-to'rt joydag'i to'rqovokda bedana sayrayapti. So'rida oyoqlarini osiltirib So'laymon ota o'tiribdi. Qovog'i soliq. Ro'paradagi deraza ustiga shior yozib qo'yilgan: "Choydan boshqa ichimlik ichilmasin. Choyxona

mudiri birinchi grupperi invalidi G'ulom Haydarov".

So'laymon ota. G'ulom! G'ulomey! (Hech kim javob bermaydi.) G'ulom cho'loq, qaer dasan?

Yog'och oyog'ini to'qillatib, bir qo'lida kaftgir, bir qo'lida sochiq ushlagan G'ulom aka paydo bo'ladi.

G'ulom aka. Ha, ha, muncha baqirasan, betga chopar?! Kelganingni ko'rdim. Yog'im yonib ketmasin deb chiqmadim. Nima deysan?

So'laymon ota. Choyingdan ber. Achchiq bo'lsin.

G'ulom aka. Senga achchiq choy berib o'libmanmi? O'zi qiltillab turibsan, safar oldidan o'lib-netib qolsang nima qilaman?

So'laymon ota. Ha, cho'loq! Topgan bahsingni qara. Mening sog'ligim senga uch pul. Maqsading choydan urish. Buni yetti yashar bola ham biladi. Bo'l tez. Og'zim qaqrab ketdi.

G'ulom aka. Nima yevding? Kecha oshga qazi solmovdim shekilli?

So'laymon ota. Sening oshingni yegandan keyin o'n kun oshqozonning sho'rini yuvish kerak. Tuzdan osh qilasanmi nima balo, masalliqni urib qolib?

G'ulom aka. Hozir ham osh qilyapman. Nevaram Qo'qondan devzira olib kelibdi. Safar oldidan yeb ketarsan deyman.

So'laymon ota. Muncha safar deb qolding. Qanaqa safar?

G'ulom aka. Yopiray, o'zini go'llikkha soladi-ya! Peshanangga yozib qo'yibdiku shundoq?!

So'laymon ota. (jiddiy). Qaer dan eshitding?!

G'ulom aka. Kelinin aytdi. Maskov, Leningrad, Qrim, Qora dengiz qilib kelar emishsan.

So'laymon ota. Yo'g'e?

G'ulom aka. Ha, hamma buyruqlar kelinimning qo'lidan o'tadida. U biladi. Putyovka zakaz qilibdi rais. Oshig'ing olchi, do'stim.

Menga qara, meni ham olib ketmaysanmi-a? Ja bo'limasa chamadoningni ko'tarib yurardim.

So'laymon ota. Kurortga-ya?

G'ulom aka. Ha, nima qipti?

So'laymon ota. Yetmish yildan beri atrofimda xira pashshaday g'o'ng'illaganing-g'o'ng'illagan. Endi o'sha yokda ham tinch qo'yamsanmi? Tur, yaxshisi choyingni olib kel.

G'ulom aka. Qo'polliging qolmadi. Og'zing xuddi Mamarasulning fermasiga o'xshaydi.

So'laymon ota. Bor, bor, ko'p suyulma. (Choy olib keladi. O'ziga, So'laymon otaga quyib uzatadi.) Ha, tuzuk. Urmabsan. Demak meni kurortga yuborishmoqchi degin?

G'ulom aka. Ha. Ammo-lekin mazza qilasan. Tashvishing yo'q. Qo'ylardan qutulding...

So'laymon ota. Bu gaping to'g'ri. Qo'ylardan qutuldim. Tashvishim yo'q. Lekin yuragim g'ash. Shu qo'ylar bilan ovunardim. Endi murdaga o'xshayman.

G'ulom aka. Vahima qilma! Baribir bir kun topshirishing kerak edi yo kolxozga, yo o'sha egasiga, do'xtir bolaga.

So'laymon ota. No"monjonga.

G'ulom aka. No"monjonga. U yo'q. O'ttiz yil kutding. Bo'l dida!

So'laymon ota. Hakimbekning qiziga o'xshab qolsamchi?

G'ulom aka. Qaysi Hakimbek?

So'laymon ota. Ho'v, ko'pkarida mening otimdan yiqilib, mayib bo'lgan Hakimbekda. O'tgan yili janozasiga birga bordikku?!

Qumariqlik...

G'ulom aka. E, bo'ldi, bo'ldi, Xo'sh, uning qiziga nima qilibdi?

So'laymon ota. Eridan qoraxat kelganda janoza ochgan. Yil o'tmay, yangitdan er qilgan. Oldingi eri o'limgan ekan, yigirma yil deganda qaytib keldi.

G'ulom aka. E, bo'ldi-bo'ldi! Eshitganman. Sayramlik yigit.

So'laymon ota. Ha.

G'ulom aka. Do'xtir bola... No"monjon ham kirib keladi, demoqchimisan.

So'laymon ota. Hada.

G'ulom aka. Qani endi omon bo'lsa-yu, kelsa! Butun qishloqqa o'zim osh qilib berardim. Qo'ylarni bo'lsa... qo'ylarni kolxozdan olaveradi.

So'laymon ota. Hamma gap shundada, kallavaram. O'zim topshirsam devdim. O'z qo'lim bilan. Ikkita qo'ying mana shuncha bo'ldi demoqchiydim. Shu kungacha uning qaytib kelishiga umidvor edim. Qo'ylarni topshirdimu umidim uzildi. Qayoqlardadir nom-nishonsiz yotganday... Na undan zot qoldi, na biror xotira... Ko'z oldimdan ketmaydi urushga ketayotgani. Hovlida ekinlarni sug'orayotgan edim. Bunday qarasam, eshik tagida turibdi. Orqasiga qop ilib olgan. Ikki yonida ikkita qo'zi... Men ham ketyapman, dedi. Do'xtir bo'lib bir oy ham ishlaganim yo'q qishlog'ingizda. Eson-omon qaytsam, shu yerda yashayman. Manavi ikkita qo'zini yaxshi niyat bilan oluvdim. Sotishga ham, so'yishga ham ko'zim qiyamadi, dedi. Sizda tursin, dedi. Omonat, dedi. Ikkiti qo'zi ekanku, omon qaytganda, oyog'ining tagiga yuzta qo'yni so'yib tashlardim!.. Nima deding? Tursunboydan ajrab qolib, No"monjon o'g'il bo'larmikin devdim. Nasib qilmadi.

G'ulom aka. Menga qara... Balki tirikdir?.. Shundoq urushdan qaytgan odam ikkita qo'yini o'ylarmidi?..

So'laymon ota. Yo'q, tirik bo'lsa kelardi yo xabar berardi. No"monjon unaqa qahri qattiq odam emas edi.

G'ulom aka. Kim biladi deysan... Odamning ichiga kirib bo'lmaydi?

So'laymon ota. Yo'q, No"monjon unaqa odam emas edi. Rahmatli Zebining ham unga mehri tushib qolgan edi. O'zi uylantirmoqchi edi. Qiz ham tanlab qo'yuvdi. Nasib qilmadi. Demak, meni kurortga jo'natishmoqchi?

G'ulom aka. Ha, bir o'ynab kelasan.

So'laymon ota. Jo'nayman. Lekin kurortgamas. Boradigan joylarim bor o'zimning. Mana. (Qo'yidan besh-oltita konvert chiqarib, G'ulom akaning oldiga tashlaydi.) Shu xat egalarining hammasi No"monjonni bilishadi. Lekin bizning No"monjonmi, boshqami - noma'lum. Shularning oldiga boraman.

G'ulom aka. Esingni yedingmi qariganingda?

So'laymon ota. Yo'q, Topmasam, esimni yegan bo'laman. Shu fikr ilgari xayolimga kelmaganiga achinaman. Mabodo o'zini topsam, o'ziga, topmasam bironta qarindosh-urug'i, tanish-bilishiga pullarni topshirib, qarzimdan qutulaman. Bo'limasa bu dunyo tugul, u dunyoda ham tinch

bo'lmayman. Rais Abdullajon, baraka topkur, bozor narxida sotib oldi qo'ylarni. Nima qilaman shuncha pulni? To'g'ri

o'ylabmanmi, nima deysan?

G'ulom aka. Barakalla. Sendan boshqa narsani kutmagan edim. Endi bo'lmasa gap bundoq. No'monjon topilmaguncha choyxona berk!..

So'laymon ota. Bu nima degan?

G'ulom aka. Seni yolg'iz yubormayman. Birga boraman.

So'laymon ota (unga tikilib qoladi). Cho'loq!.. Menga mehribonligingni bilardim. Ammo bunchaliksan deb o'ylamagan edim.

Rahmat.

G'ulom aka. Og'irroq bo'l. Shungayam rahmatmi?! Men o'zimni ham o'ylayapman. Hali baquvvatsan, bitta-yarimta xotin ergashtirib ketsa, sensiz nima qilaman? Chaqchaqlashib borib kelamiz. Innaykeyin, mening tashvishim sening tashvishing, sening tashvishing mening tashvishim. Nima deding?

So'laymon ota. To'g'ri. Ammo do'stim, sen ovora bo'lma. Nima, meni butunlay aqldan ozganga chiqaryapsanmi?! O'zim boraman. No'monjonnini topishim bilanoq senga dilgirom beraman.

G'ulom aka. Menga qara...

So'laymon ota. Gap bitta. Yaxshisi bitta fotiha ber. To'xta! Ma'murjonning "Bog'aro" sini qo'y. Bir eshitay.

G'ulom aka. Hozir. (Ichkariga kirib, Ma'murjon Uzoqov ijro etgan "Bog'aro" ashulasini qo'yadi va qaytib chiqib, o'rtog'inining ro'parasiga o'tiradi. Ikki o'rtoq churq etmay ashulani oxirigacha eshitishadi.)

So'laymon ota. Bog'aro qo'ysam qadam, gul g'uncha qilmay xandalur. Juda bo'limganda shu bitta xandasini ko'rsam armonim yo'q edi...

Bir oz xayol surib, dast o'nidan turadi.

G'ulom aka. Oshga turmaysanmi? Atayin senga qilayotuvdim.

So'laymon ota. Qaytganimda qilasan yana. Xayr. G'ulom aka. Omon bo'l.

So'laymon ota ketadi. G'ulom aka bir narsasini yo'qotgan odamdek karaxt bo'lib, orqasidan qarab qoladi, keyin ichkariga kirib, "Bog'aro" plastinkasini yana qo'yadi. Derazadan uning o'ychan, xomush basharasi ko'rindi.

Parda

To'rtinch Ko'rinish

Studentlar yotoqxonasidagi bir kishilik xona. Stol, ikkita stul. Temir karavot. Unda chaqaloq yotibdi. Xonaning o'rtasidagi chiroq abajuriga qoshiq, cho'mich, kaftgir ilingan. Stol yonida dars tayyorlab o'tirgan Sodiqning oyog'iga bog'langan kir yoyadigan arqon abajurga ulangan. Sodiq oyog'ini qimirlatganda qoshiq, cho'mich, kaftgir taraqlaydi. Shu shovqin bilan u bolani ovutmoqchi bo'ladi. Bola bir oz tinadi va yana big'llab yig'laydi.

Sodiq. Alla, allo', allo'!.. Sen uxla, men dars qilay, allo'! (Bola yig'laydi.) Allo', allo', uf! Juda yig'loqi ekansanku-a, oyingdan ham battar... (Borib bolani qo'liga oladi.) Bo'ldi, bo'ldi... Nima qilsam bo'ladi? Ashula aytib beraymi? (Kuylaydi.) Olmani otdim otganga, sim kalavotda... Yo'q, bu senga bo'lmaydi... Aylama, aylama, aylaganim bor, qizlarning ichida tanlaganim bor. Bo'ldida endi, muncha big'llaysan? Allo', allo', alla! (Kuylaydi.) Hozir sutga boraman, senga kasha qilaman... Hozir sutga boraman, senga kasha qilaman, o'zim kasha yemayman, hammasini sen yeysan!.. (Bola yig'idan to'xtaydi.) Ha, qizg'anchoq. Jon kirdi-a? Kimga o'xshading, bilmayman. Hoynahoy buvinga o'xshasang kerak. U shunaqa qizg'anchoq. Qizini... oyingni ham tortib olib ketdi. Ikkalamiz qoldik. (Bola yig'laydi.) Yig'lama, yig'lama, yigitga yig'i yarashmas, hali kasha qilaman, lekin kasha osh emas. Ana, dadangni ham shoir qilib

yubording. (Kuylaydi.) Hali kasha qilaman, lekin kasha osh emas. (Bola tinadi). Sodiq uni karavotga yotqizadi va stol yoniga o'tirib, yana dars qila boshlaydi.

Sodiq. Galileo Galiley o'zining "Astronomik mulohazalar" kitobida yerning sayyoralar orasidagi eng... (Eshik taqillaydi. Sodiq sapchib o'nidan turib, bolani karavot ostiga yashiradi). Jim yot! Sen uchun jang bo'ladi hozir. Kim? Kiring.

So'laymon ota kiradi. Yelkasida qop.

So'laymon ota. Sodiqmisan?

Sodiq. Ha.

So'laymon ota. No'monjonning o'g'limisan?

Sodiq. Ha. Keling. O'tiring.

So'laymon ota. Birpas o'tiraman. (Yelkasidagi qopni eshik yoniga qo'yadi. O'z uyidek xonani kuzata boshlaydi.) Dars tayyorlayapsanmi?

Sodiq. Ha.

So'laymon ota. Yaxshi. Kim bo'lmoqchisan?

Sodiq. Yadershik.

So'laymon ota. Juda yaxshi. U nima degani?

Sodiq. Fizikaning bir turi.

So'laymon ota. Hm. Yaxshi. Nechaga kirding?

Sodiq. O'ttiz birga.

So'laymon ota. O'ttiz bir... Bu, o'qishni odamlar yigirma uch, yigirma to'rtida bitiradi. Seniki juda cho'zilib ketibdiku-a?

Sodiq. Aspiranturadaman.

So'laymon ota. Hm. Bu endi o'qishlarning o'qishi. Shundoqmi?

Sodiq. Shunaqa desa bo'ladi.

So'laymon ota. Yaxshi. Meni tanidingmi?

Sodiq. Yo'q. Tanimay turibman.

So'laymon ota. Men zarkatlik So'laymon ota bo'laman. Xat yozgansan menga, esingdami?

Sodiq. E, bo'ldi! "Pravda"da bir jurnalist bilan sizning suhbatingiz chiquvdi.

So'laymon ota. Ha, barakalla. O'shandan keyin xat yozgansan.

Sodiq. Ha. Lekin amaki, dadam sizning uyingizdan urushga ketmagan ekanlar. Aniqlaganman. Farg'onadan ketganlar urushga. Biz asli farg'onalikmiz. Keyin siz, u kishini uylanmagan degan edingiz. Dadamlar uylangan ekanlar. Opam bor. Mendan ikki yosh katta. Hali ham qidirib yuribsizmi?

So'laymon ota. Ha, omonati bor edi ozgina. Qarz bilan o'tib ketmay deymanda.

Sodiq. Tushunaman... Voenkomatda nima deyishdi?

So'laymon ota. Nima deyishardi? Bedarak ketgan. Bunaqalar ko'p. Qabrini topsam ham mayli edi. O'ttiz yildan beri kutaverib, shunga ham roziman endi. Dadangning qabri aniqmi?

Sodiq. Aniq. Kaliningradda. O'tgan yili borib keldim.

So'laymon ota. Yaxshi. Har bir odamdan hayotida bitta iz qolishi kerak. Yo farzand, yo ish, yo qabr. Bir quloch yer. Mening No"monjonimga ham bir quloch yer nasib qilgandir? Nima deysan?

Sodiq. Albatta. Balki tirikdirlar?

So'laymon ota. Koshkiydi... Lekin tirik bo'lsa xabar berardi. O'ttiz yildan beri bir odam kutsa-yu, u xabar bermasa?

Odamgarchilikmasku bu, a, nima deysan?

Sodiq. Nima derdim? To'g'ri, Amaki! Men choy damlay. Hoynahoy yo'ldan horib kelgansiz. Men hozir.

Sodiq chiqib ketadi. Karavot ostida bola yig'laydi. Sulaymon ota qaerdan yig'i kelayotganini bilmay, alanglaydi. Nihoyat topadi. Qo'liga oladi.

So'laymon ota. Bay, bay, bay... Chaqaloqku bu?! Seni kim bekitdi bu yerga, a? Kimsan sen-a?

(Erlakaydi.) Allo', allo', allo'!... Qo'zichog'im allo'! Shirin bolam allo'! (Bola yig'idan tinadi, choy ko'tarib Sodiq kiradi.) Buni nega karavotning tagiga qo'yibsan? Kimning bolasi bu?

Sodiq. Maniki.

So'laymon ota. Xumpar! Karavotning tagiga qo'yasanmi bolani?!

Sodiq. Qorong'ida yaxshi uxlaydi. Menga bering.

So'laymon ota. To'xta. Ho'l bo'libdiku! E, kallavaram. (Karavotga yotqizib yecha boshlaydi.) O'g'il ekanku? Ha, azamat! Hech kim qaramadimi senga! Yolg'iz qoldingmi? Hozir artamiz. Qup-quruq bo'lasan! (Sodiqqa.) Quruq nimang bor, opkel. (Sodiq shkafdan choyshab oladi.)

Sodiq. Manavinga o'ray qolaylik?

So'laymon ota. Manavi boshqa gap. Oti nima o'g'ilchaning?

Sodiq. Pele.

So'laymon ota. Nima?! U nima degan.

Sodiq. Shunaqa zo'r futbolist bor. Pele degan. O'shangang o'xshaydi. Qarang. Qop-qora. Keyin nuql koptokka o'zini tashlaydi. Asli ismi Fotih.

So'laymon ota. Shunday de. Yaxshi ismi bor ekan. Fotih. (Bola yig'laydi.) Bola bechora och. Onasi qani?

Sodiq. Onasi yo'q. Yo'q, bor. Hozir yo'q. O'g'irlab keldim.

So'laymon ota. Kimni? Pelenimi? E, Fotihni?

Sodiq. Ha.

So'laymon ota. Hech narsa tushunmadim. Odamga o'xshab gapir.

Sodiq. Onasi onasinikiga ketib qolgan. Aniqrog'i, olib ketib qolishgan zo'rlab.

So'laymon ota. To'xta. Bir chekkadan gapir. Kimning onasi? Kimni zo'rlab olib ketgan?

Sodiq. Pelening onasi, ya'ni menin xotinim, Zarifa onasinikiga ketib qoldi. Butunlay. To'g'rirog'i onasi kelib olib ketdi.

So'laymon ota. Fotihni tashlab-a? O'z tuqqan bolasini-ya?!

Sodiq. Yo'q. Bolaniyam olib ketishuvdi. Bugun kechasi o'g'irlab keldim.

So'laymon ota. Endi tushundim. Shunday bordingu o'g'irlab kelding?

Sodiq. Ha, dang'illama uchastkada turishadi. Devordan oshib tushdim. Katta itlari bor. Ovcharka. Kechasi qo'yib yuborishadi. Lekin menga tegmaydi. Bir oy devordan go'sht tashlab o'rgatib oldim.

So'laymon ota. Ha, azamat! Boplabsan. Keyinch?

Sodiq. Keyin devordan oshib tushib, shunday hovlining o'rtasiga bordim. Ikkita xaligi, o'zbekcha karavot. Bittasida chol-kampir. Bittasida (bolaga ishora qiladi) ona-bola pishillab uxbay yotishibdi. Avval bitta o'pdim Peleni. Keyin dast ko'tarib qochdim.

So'laymon ota. Molodes! Yarim kechadan beri bola shu yerda?

Sodiq. Ha.

So'laymon ota. Demak, yarim kechadan beri bola och?

Sodiq. Yo'q. Ikki marta non chaynab berdim.

So'laymon ota. (mazax qilib). Non chaynab berdim!.. Bor, anavi qopni och. Tuyaqurt bor. (Sodiq qopni ochadi.) Topdingmi?

Sodiq. Topdim.

So'laymon ota. Chayna! Onasiga olib borguncha harna mador.

Sodiq. Onasiga olib bormayman!

So'laymon ota. Nega endi olib bormas ekansan? Qaysi ahmoq emizikli bolani onasidan olib qochadi?

Sodiq. O'rganib ketadi. Kichkina emas.

So'laymon ota. Qanchaga kirdi?

Sodiq. Besh oydan oshdi.

So'laymon ota. Ha, katta bo'lib qolgan ekan. Opkel, sol og'ziga. Ha, barakalla. Polvon o'g'lim, botir o'g'lim... Yana chayna.

Muncha ivirsiyan?! Onasi ketib qoldi deysanmi? Menga qara, onasi nega ketib qoldi?

Sodiq. Ketib qolgani yo'q, olib ketishdi.

So'laymon ota. Nega?

Sodiq. Bitta-yu bitta qizimizni shu katalakka tiqib qo'yaymiz deyishdi. Uchastkada turasizlar, deyishdi. Ko'nmadim.

So'laymon ota. Nega, maqtayapsanku uchastkasini?

Sodiq. Uchastkalari yaxshi. Beshtami, oltita xona. Katta hovli. Meniki emasda. Odam mustaqil bo'lishi kerak. Qaynona, qaynotaning qosh-qovog'iga qarab nima azob? To'g'ri emasmi?

So'laymon ota. O'zing yutmasdan bolaning og'ziga solsangchi?

Sodiq. Shirin ekan. Mana. (Bolaning og'ziga soladi.) Bilaman. Siz ham bor uchastkaga deysiz. Ko'pchilik shunaqa deyapti.

O'rtoqlarim ham. Yotoqxonada nima qilasan deyishyapti. Mening borgim yo'q. Bormayman. Boya o'zingiz aytdingiz, har bir odamdan hayotda bironta iz qolishi kerak. Men ham shu fikrdaman. Har bir odamda maqsad bo'lishi kerak. Mening maqsadim -

O'zimni ilmga bag'ishlash. Biron narsa kashf qilish. Xullas jamiyatga foyda keltirish. Bazarov hayotning hamma lazzatlaridan voz kechib, o'zini kurashga bag'ishlagan.

Suo'laymon ota. Kim u?

Sodiq. Turgenev degan yozuvchining qahramoni. Hatto u toshda yotgan. Men ham bir yil matrasimga shag'al solib yotdim.

Uylanmasimdan ilgari. Chidaso bo'ladi. Uchastkada nima bor? To'rt qavat ko'rpaşa, par yostiq. Issiq suv, sovuq suv. Issiq ovqat, sovuq ovqat... Yo'q, bu ahvolda odam suyulib ketadi, ilm yaratib bo'lmaydi. Peleni - O'g'limni ham qattiqqo'llik bilan, chayir qilib tarbiyalamoqchiman.

So'laymon ota. Bu gaplaring menga ma'qul. Yaxshi o'yabsan. Lekin bola - bola.

Sodiq. Hechqisi yo'q. Hozir sut olib kelib kasha pishiraman. Manniy kasha. Keyin yasliga olib boraman. Institutimizning yaxshi yaslisи bor.

So'laymon ota. Baribir onasiga olib borib beramiz. Nima deding, polvon?

Sodiq. Yo'q.

So'laymon ota. Jirtillama! Senga kim qulq soladi! Bor, yaxshisi sut olib kel. Qani, qanaqa kasha pishirarkinsan, ko'ramiz. Bolani qara, eti suyagiga yopishib qopti? Sutga puling yetadimi? (Sodiq yugurib chiqib ketadi. So'laymon ota bolani qo'liga olib kuylay boshlaydi.) Bog'aro qo'ysam qadam, alla, gul g'uncha qilmay xandaladur, alla... Qani endi meni ham bitta nevaram bo'lsa? Bog'aro qo'ysam qadam gul g'uncha qilmay xandaladur... (Eshik taqillaydi.) Kim?

3arifa (eshik orqasidan). Menman, Sodiq aka! Fotih shu yerdami?

So'laymon ota. Obbo, seni qidirib kelishdiku, polvon. Endi nima qilamiz? (Eshikka.) Sodiq yo'q. Chiqib ketdi boyta.

3arifa. Siz kimsiz? Qayoqqa ketdilar?

So'laymon ota. (bolaga). Ochamizmi? Nima bo'lsa bo'lar. Ochamiz.

3arifa. Nega indamaysiz? Oching axir eshikni!

So'laymon ota. Hozir deyapmanku...

Eshik ochadi. Xonaga Zarifa, onasi, otasi kirib kelishadi. Zarifa Fotihga yopishadi.

3arifa. Buyoqqa bering-e! Voy, qo'zichog'im! Yuragim chiqib ketdiku!

Onasi (Zarifaga). Men senga aytdim bu yigit o'lgur bir baloni boshlaydi deb. Quloq solmading. Bola o'g'irladimi, tamom, uyni ham shipshiydon qilib ketadi, deyaver! Qani o'zi? Huv yashshamagur.

3arifa. Oyi! bo'ldi endi!

Onasi. Nega bo'lar ekan? Hali man boshlaganim yo'q. Hoy (Eriga.) Hoy deyapman! Darsdamisiz nima balo? Nega qaqqayib turibisz? Arzanda kuyovingizni qidirsangizchi! Bitta-

yu bitta nevaramni indamay o'g'irlab ketaveradimi? Toping, deyapman!

Otasi. Hozir, hozir, hozir. (Eshikka yo'l oladi.)

Onasi. Toping, darrov. (Zarifaning qo'lidagi nevarasiga yopishadi.) Bolaginam, bolajonim. G'aflat bosib ugrayveribman, seni o'g'irlab ketaveribdi imonsiz! Aytib ham qo'yamabd!

Otasi xotinining bola bilan ovora bo'lib ketganini ko'rib, ohista So'laymon otaning yoniga o'tadi.

Otasi. Assalomu alaykum. Men kelinning... Zarifaning otasi bo'laman. Mirbilol. O'qituvchi edim, hozir pensiyadaman. (Xotiniga ishora qiladi.) Bu kishi...

So'laymon ota. Xotiningiz.

Bilol aka. Xuddi shunday. Sharifaxon.

So'laymon ota. Bama'ni xotiningiz bor ekan.

Bilol aka. Nimasini aytasiz! Qirq yildan beri bir yostiqqa bosh qo'yib kelyapmiz.

So'laymon ota. Savobning tagida qolibsiz.

Bilol aka. Labbay?

So'laymon ota. Savobning tagida qolibsiz deyman. Qizingiz ham onasiga tortganmi?

Bilol aka. Buni qarang, qizim menga o'xshaydi.

So'laymon ota. Ha, bunisi durust, durust.

Bilol aka. O'zlarichi? O'zlar kim bo'ladilar?

So'laymon ota. Memmi? Men... So'laymonman. Qishloqdan, Zarkatdan kelganman.

Bilol aka. O', ko'rinish turibdi. Sog'lomsiz, baquvvatsiz. Qishloq havosi ko'p yaxshi narsa. Men ham ilgari...

So'laymon ota. Bilol aka, nishxo'rt gapni hozir bir chekkaga qo'yaylik. Xo'pmi? O'g'il bola gapdan gaplashaylik. Qani. O'tiring.

Bilol aka. Xo'p bo'ladi, xo'p bo'ladi.

So'laymon otaning ro'parasiga, karavotning bir chekkasiga o'tiradi.

So'laymon ota. Gap bundoq. Bugundan boshlab qizingiz...

Bilol aka. Zarifa...

So'laymon ota. Ha, Zarifa bugundan boshlab eri, o'g'li bilan shu yerda turadi. Tuzukmi? Men kimligimni aytib o'tirmayman.

Tuzukmi? Etigining qo'nijidan pichog'ini olib, chophonining yengiga arta boshlaydi. Yo qaytaraymi?

Bilol aka. Yo'q, yo'q, bo'ldi. Menku roziman, lekin...

So'laymon ota. Egachi! Buyoqqa qarang (Zarifaning onasi unga yaqinlashadi.) Nevarani ko'rdingizmi?

Onasi. Ko'rdim, aylanay, ko'rdim.

So'laymon ota. Juda yaxshi. Bugundan boshlab u otasi bilan shu yerda turadi.

Onasi. Voy, voy?

So'laymon ota. Gapni bo'l mang. Mullakamga hozirgina kimligimni tushuntirdim. Onasi ham shu yerda turadi. Gap shu. O'zini ilmga bag'ishlagan odam uchastkada tura olmaydi. Haligi, nima edi? Aspiranturasi bitsin, dang'llama uchastkani o'zi soladi. Ana unda xohlasalaring birga turinglar. Rozimisiz? Bo'lmasa hoziroq qishloqqa ko'chirib olib ketaman.

Bilol aka. Rozimiz, rozimiz! (Xotinini turtib.) Gapirsangchi!

Onasi. Zorim bor, zo'rim yo'q. Bittagina qizim edi.

So'laymon ota. Barakalla. Gap degan bundoq bo'libdi. Qizingizga hech nima qilmaydi. Nima, o'zingiz, egachi, pichog'ingiz moyda turganmidi mullakamga tekkaningizda? (Zarifaga.) Emizib bo'ldingmi? (Zarifa boshini qimirlatadi.) Barakalla. Bolani och qo'yma. Polvon bola bu. Bo'lmasa, qani, omin! Kechqurunga, egachi, osh qilib turing. Toshkancha palov behi bilan. Kelin-kuyov

borishadi. Men ham boraman. Qolgan gapni o'shatda gaplashamiz. Kelishdikmi? Barakalla. Qani, turinglar endi. Pelega otdix kerak. (Zarifa piq etib kuladi.)
Onasi. Kimga?

So'laymon ota. Fotih polvon dam olsin. Er-xotinning ham gaplari yig'ilib qolgandir?

Sut ko'tarib Sodiq kiradi.

Sodiq. Mana, sut ham keldi. (Mehmonlarni ko'rib hayron bo'lib qoladi.) Nima gap? Tinchlikmi? Bolani bermayman!

So'laymon ota. Hech kim bolangga tegmoqchi emas. Ko'rgani kelishibdi, xolos.

Bilol aka. Ha, ko'rgani keldik. Tinchmisiz, o'g'lim?

Sodiq. Rahmat. (So'laymon otaga.) Tushunmadim.

So'laymon ota. Bo'ldi-bo'ldi, keyin tushunasan. Xo'p bo'lmasa, mulla aka, sizlar boraveringlar. Kechqurun uchrashamiz.

Bilol aka. Bosh ustiga. Kuyovimizning shunday bama'nii qarindoshi bor ekan. Bilmagan ekanmiz. Albatta keling, kutamiz.

So'laymon ota. Bormaychi! Xo'p, xayr hozircha!

Bilol aka xotini bilan chiqib ketadi.

Sodiq. Zarifa! Nima bo'ldi o'zi? Hech narsa tushunmayapman.

So'laymon ota. Nimani tushunmayapsan? Xotining yoningda. O'g'ling yoningda. Bo'ldida.

Sodiq. (Zarifaga). Rostmi?

3arifa. Rost. Amakim ko'ndirdilar.

So'laymon ota. Men ham boray endi.

3arifa. Voy, kechqurunchi? Dadam xafa bo'ladilar.

So'laymon ota. Kechqurunmi? Kechqurun hammamiz birga boramiz. Kelaman.

3arifa. Rahmat.

So'laymon ota qopini yelkasiga olib ketayotganda bir narsa esiga tushadi. Qopdan bir siqim qurt, ikkita non olib Zarifaga uzatadi.

So'laymon ota. Ermak.

Sodiq. Amaki, qayoqqa borasiz hozir? Men birga boray?

So'laymon ota. Yo'q, yolg'iz bo'lishim kerak. O'ylab oladigan ishlarim ko'p. No"monjonni topmasam bo'lmaydi.

So'laymon ota chiqib ketadi.

Sodiq. Zarifa! (Borib xotinini quchoqlab, o'pa boshlaydi.) Butunlay keldingmi?

Zarifa (erkalanib). Nari turing! Sutim oqib ketadi!..

Parda

Beshinchi Ko'rinish

To't kishilik vagon kupesi. Kupeda o'ttizlarga borgan, lekin sochiga oq oralagan ayol o'tiribdi. Hamma polkalarda bo'g'chalar, og'zi doka bilan bog'langan chelak, tog'oralar... Ayol shod, poezdning bir ohangdag'i taq-tuqiga mos qandaydir ashulani xirgoyi qilib ketyapti. So'laymon ota kiradi.

So'laymon ota. Mumkinmi?

Ayol. Keling, ota. Salom alaykum.

So'laymon ota. Vaalaykum. Mening joyim shu yerda ekan.

Ayol. Marhamat. (Ro'parasidagi o'rindiq ustidan bitta bo'gchasini olib, yoniga qo'yadi.) Kechirasiz.

So'laymon ota. Hechqisi yo'q (O'tiradi.) Qayoqqa ketyapsan, qizim?

Ayol. Moskvaga. O'zingizchi?

So'laymon ota. Mening yo'lim olis.

Ayol. O'g'lingizning oldigami?

So'laymon ota. Ha.

Ayol. Hayot shu ekan. Umrning ko'pi yo'lda o'tar ekan. Oyda ikki, uch marta Moskvaga qatnayman.

So'laymon ota. U yerda qimmatmi?

Ayol. Nima?

So'laymon ota. Nima olib ketyapsan? Pamildori, uzum, nok...

Ayol (sharaqlab kuladi). Voy, sotgani olib ketyapti deb o'yladingizmi? Nahotki olibsortarga o'xshasam?

So'laymon ota. Yo'q, o'xshamaysan. Lekin har holda...

Ayol. O'rtog'imning oldiga ketyapman. Banket qilyapmiz!

So'laymon ota. Banket? U nima deganing?

Ayol. Ziyofat. Nodirxon akam doktorlik dissertatsiyalarini yoqlayaptilar.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi... Doktor deganing - olimlarning olimi de-a?

Ayol . Shunday desa ham bo'ladi.

So'laymon ota. Nimadan olim?

Ayol. Fizikadan. Lekin fizikaning nimasidan, o'zim ham bilmayman.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi... Doktor... bu katta gap. (Qopini ochib, tuyaqurt oladi). Ma, ermak.

Ayol. Rahmat.

So'laymon ota. O'zing ham olimmisani?

Ayol (kuladi). Ha, uy ishidan, ro'zg'ordan olimman.

So'laymon ota. Bolang ko'pmi? Pauza

Ayol. Bola yo'q, hali ulgurmadi. Nodirxon akam doktor bo'lib olsinlar, bola qochib ketmaydi.

So'laymon ota. Ha, davlat bilan farzandning kechi yo'q. Lekin yoshlikda bolalik bo'lib qo'ygan yaxshi. Uy ishidan olimman deysan, bu nima, o'qishga ra'ying yo'qmi?

Ayol. Nega? Maktabni medalKj bilan bitirganman. Institutning ikkinchi kursidan ketib qoldim. Yaxshi qurt ekan. Nodirxon akam shunda endi aspiranturaga kirgan edilar. Men ishladim. Nodirxon akam o'qidilar. Yaxshiyam shunaqa qilgan ekanmiz, mana doktor bo'lyaptilar!..

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi.

Ayol. Ezilib ketdilar o'zlariyam! Axir osonmi? Besh yil aspirantura, keyin ikki yil kandidatskiyning ketida sarson bo'ldilar. Bir oy Toshkentda bo'lsalar, bir oy Moskvada. Keyin to'rt yil doktorantura. Bir yil laboratoriya. Tag'in o'zlariga achimmay mena achingadilar. Shuncha yil turmush qilib, bir martayam kurort-purortga olib bormadim deydilar. Menga kurort kerak ekanmi? Nodirxon akamning bir kun xursand bo'lib yurganlari men uchun yuzta kurort.

So'laymon ota. Bu gaping to'g'ri. Erning chehrasi - xotinning dili. Erning chehrasi ochiq bo'lganda xotinning dili quvnaydi, qovog'idan qor yog'ilib tursa, xotinning dili - jahannamning o'zi. Oting nima?

Ayol. Anvara.

So'laymon ota. Baraka top, Anvara qizim. Eringni oti nima deyatuvding?

Anvara. Nodirxon...

So'laymon ota. Nodirxonni shunchaki izzat qilibsan, endi buyog'i o'zing ham izzatda bo'lasan.

Anvara. Ishqilib aytganizing kelsin. O'g'lingiz harbiy xizmatdami?

So'laymon ota. O'g'lim... O'g'lim urushda bedarak ketgan... O'g'lim deyapman, o'g'lim emas, o'g'lim fin urushida halok bo'lgan, bu... O'g'limdek bir yigit... Urushga o'zim jo'natgan edim. Balki eshitgandirsan? No"monjon... No"monjon Nazarov!.. Vrach. Asli toshkentlik.

G'ulom aka - urush invalidi, choyxonachi, 68-70 yoshlarda.

Zebi xola - So'laymon otaning xotini, 45-50 yoshlarda.

Nazarov - vrach, 45-50 yoshlarda.

Sodiq - aspirant, 30 yoshlarda.

Anvara - 30 yoshlarda.

Mamarasul - ferma mudiri, 35-40 yoshlarda.

Zarifa - Sodiqning xotini, 22-25 yoshlarda.

Zarifaning ota-onasi, kупedagi yigitlar, Galinaning qishlog'idagi ayollar, quruvchi yigitlar, selKjsovet raisi, So'laymon ota kolxozidagi pravlenie a'zolari va boshqalar.

Anvara. Yo'q, ota, eshitmaganman.

So'laymon ota. Ha, albatta, qaerdan ham eshitarding. Qahramon-pahramon bo'lganda, daragi chiqardi, gazet-pazetga yozishardi, televizorda suratini ko'rsatishardi. U qahramon emas. Urushga jo'nadi-yu, benomu nishon yo'qoldi-ko'ydi. Minskka ketyapman. U yerda topmasam, Brestga boraman. Kievda ham bir xotin meni No"monjon degan bir yigit o'limdan asrab qoldi deb yozuvdi.

Shuning oldiga ham boraman. Balki shu yigit menin No"monjonimdir?..

Anvara. Ajab emas, Topasiz, ota. Yigirma-yigirma besh yil deganda topilganlar bor. Siz ham topasiz.

So'laymon ota. Topmasam bo'lmaydi. Qarzim bor. Qiyomatli qarz. Innaykeyin...

Poezd to'xtaydi.

Anvara. Stansiya!.. (Shoshib o'rnidan turadi.) Sizga biron narsa olib chiqaymi?

So'laymon ota. Yo'q, hech narsa kerak emas.

Anvara. Men tushib chiqaman. Shunaqa kichkina stansiyalarda yaxshi-yaxshi narsalar bo'ladi.

So'laymon ota. Bor, qizim, bor. (Chiqib ketadi). Yaxshi juvon ekan. Zebi ham menin ustimda o'lib qolardi... (Ohista kuylaydi.) Bog'aro qo'ysam qadam gul g'uncha qilmay xandadir... Zebi! Topaman uni. O'sha Berlinigacha boraman. Odam-a, odam... Butun boshliq odam qumursqaday yo'q bo'lib ketarmidi?! Topaman. Sen ham tinch bo'lasan shunda. Kechalari bezovta bo'lmysan tushimga kirib. Men ham... tinch boraman yoningga. Boshqa qiladigan ishim qolmadi... bu dunyoda.

Kupega ryukzak osgan yosh yigit kiradi. Uning kiyimidan jiddiyligi ham, yengiltakligi ham bilinmaydi. Sochlari uzun, bakenbardlari engaklarigacha tushgan. Xullas, shu kunning yigitlaridan.

1-yigit (eshikni surib). VasKjka! Kelaver, bizning joy buyoqda ekan! (Pastki polkada o'tirgan So'laymon otani ko'radi.) Salom, boboy!

So'laymon ota. Salom, salom. Kelinglar.

1-yigit. VasKjka! Qayokda qolding?! (Bo'g'chalarni ko'rib.) Ehha, boboy, naleva qilib chiqibsizda.

So'laymon ota. Ha endi, bir sayohat qilgim keldi.

Kupega ikinchi yigit kiradi.

1-yigit. VasKjka! Eshityapsanmi, sayohat qilgilar kelibdi, boboyni!.. (Kuladi.) Xarajati o'zidanku-a, boboy, sayohatning?!

So'laymon ota. Bularni aftyapsanmi? Yo'q, bular meniki emas. Bir juvonniki. Istansaga tushib ketuvdi, hozir chiqadi.

VasKjka. Juvonni? Juvon kim, Maks?

1-yigit. Juvonmi? Juvon haligi xotinlarning yoshi ham emas, qarisi ham emas.

VasKjka. Shundoq soki degin. Bu yaxshi. Boboy, o'sha juvon kimingiz bo'ladi? Svoymi, chujoyimi?

So'laymon ota. Svoyammas, chujoyammas.

Yigitlar qotib kulishadi.

Maks. Zo'ru, boboy-a!

VasKjka. Nalevaga qalay ekan, a, boboy? (Qo'llarini ishqalaydi.) Haligi... nima edi... O'zbekcha... ishqilib... Yo'q-yo'q, qo'l solib ko'rdingizmi?

Hovliqib Anvara kirib keladi.

Anvara. Vuy, ota, shunday shoshdim kech qolamanmi deb! Hech narsa olmadim. (Yigitlarni ko'rib hayron bo'ladi).

So'laymon ota. Bularning ham joyi biz bilan ekan. Zerikmay ketamiz.

Anvara. Juda yaxshi. Salom, yigitlar!

U yuqori polkadagi bo'g'chalarini ola boshlaydi.

Maks. Yo'q, yo'q, juvon opa! Mening joyim pastda.

Anvara bir oz o'ylanib qoladi, keyin indamay pastki joyni bo'shata boshlaydi. Ammo So'laymon ota uni to'xtatadi.

So'laymon ota. To'xta. (Maksga). Sen tepaga chiqsang bo'lmaydim? Yoshсан, erkaksan. U har holda ayol.

Maks (kesatib). O', boboy! Men buni bilmabman. Pardon. Lekin ilojim yo'q. Olis yo'lga chiqar ekanman, mamam yumshoq vagonda, alohida kupa, pastki qavatda yotishimni tayinlaganlar. Ota-onaning izmidan chiqib bo'ladi? Tepaga chiqishim mumkin, faqat bitta shart bilan...

So'laymon ota. Xo'sh?

Maks (Anvarani ko'rsatib). Agar juvon opamlar ham chiqsalar! (Kuladi.)

Anvara. Uyatsiz! Qanday tilingiz bordi shunday degani??!

Maks. Nima dedim? Yonma-yon yotaylik dedim.

Anvara. Nima??

Maks. To'g'ri tushuning meni. Siz u polkada, men bu polkada. Buning nimasi yomon? Ro'parangizda boboy yotadilarku, baribir emasmi?

VasKjka. Bo'ldi, Maks. (So'laymon ota, Anvaraga.) U hazillashyapti.

So'laymon ota. Bunaqa hazil uchun ilgari tilni sug'urib olishardi.

Maks. Qachon?

VasKjka. Shuni ham bilmaysanmi, revolyutsiyadan oldin.

Maks. E, bilmabman, boboy eski boboylardanku aytganday. Yaxshiyam revolyutsiya bo'libdi, boboy. Bo'lmasam, tilsziz yurarmidik hozir? Brrr! Qanday madaniyatsizlik! Arzimagan kompliment uchun tilni sug'urib olish! U davrlar o'tib ketdi. Hozir, boboy, ozodlik! Hamma erkin qush. So'z erkinligi, matbuot erkinligi... Yana nima?.. Xotin-qizlar emansipatsiyasi...

So'laymon ota bu so'zni tushunmay, haqorat deb o'ylaydi.

So'laymon ota. Nima deding? Yana qaytarchi?

Maks. Xotin-qizlar emansipatsiyasi... Nima edi?

So'laymonota (o'rnidan turib ketadi va Maksning yoqasidan ushlaydi). Man sanga, zumrasha, emanpasingni ko'rsatib qo'yaman.

Tirrancha! Menga yopishding, indamadim (Anvaraga ishora qilib), bunga yopishding, indamadim. Endi butun xotinlarni haqorat qilishga o'tdingmi! Hozir qaytarib ol! Yo bo'lmasa, o'sha emanpasingni ko'rsatib qo'yaman derazadan uloqtirib!

Maks. Nima deyapsiz, boboy... E, otaxon! Emansipatsiya nimaligini bilasizmi o'zi? Qo'yib yuboring. Bo'g'mang deyapman sizga!

VasKjka. Boboy, emansipatsiya - ozodlik degani. So'kinish emas.

So'laymon ota Anvaraga to'g'rimi deb qaraydi, Anvara boshini qimirlatadi.

So'laymon ota (Maksni qo'yib yuboradi). To'g'ri gapirsang bo'lmaydimi, bola!

Maks. Men o'ylab topibmanmi! Filosoflar topishgan bu so'zni (Ancha o'ziga kelib.) Ammo lekin, boboy, bitsepelaringizga qoyilman!

So'laymon ota. Yana haqorat qilyapsanmi?

Maks (cho'chib). Voy, voy! Nima dedim? Bitsepeni bilasizmi o'zi? Muskul! Muskullaringiz zo'r ekan deyapman.

So'laymon ota. Undoq bo'lsa boshqa gap. Endi tek o'tir. Agar bu ayolga yana tegajog'liq qilsang, ota-onangning ayamayman.

Sho'tta yotasammi? Yo tepaga chiqasanmi?

Maks. Albatta tepaga chiqaman, otaxon. Tepayam bo'laveradi... bizga.

So'laymon ota. Manavi boshqa gap.

Maks. Lekin otaxon, meni urishsangiz mayli-yu, otamga tegmang.

So'laymon ota. Ha, otangga nima qibdi?

VasKjka. Otasi halok bo'lgan.

So'laymon ota. Halok bo'lgan? Nima qilib?

VasKjka. Ellik oltinchi yili. Chegarada.

So'laymon ota. Voyanniy midi otang?

Maks. Ha. Chegarani buzib o'tayotganlar bilan otishmada halok bo'lgan.

So'laymon ota. Bechora... Qabrini bilasanmi?

Maks. Bo'lmasamchi? Borib ham kelganman.

So'laymon ota. Bu ishing yaxshi. Men ham... O'g'limning qabrini qidirib ketyapman. U urushda bedarak ketgan.

VasKjka. Iyya! Bedarak ketgan bo'lsa, qabrini qaerdan bilasiz?

So'laymon ota. Hamma gap shundada... Bilmayman. Brestga boraman. Minskka, Kievga. Topsam topdim. Topmasam, yana boradigan joylarim bor.

Anvara. Topasiz, ota. Ko'p tashvish chekavermang.

So'laymon ota. Topmasam bo'lmaydi. Adreslarim ko'p. Hammasiga boraman.

Konduktor kiradi.

Konduktor. Yaxshi ketyapsizlarmi? Hech narsa kerakmasmi? Choy? Qand? Non?

So'laymon ota. Choyingdan opke. Ko'k choying bormi?

Konduktor. Topiladi, otaxon. Bir stakanmi yo?

So'laymon ota. Istakoningni nima qilaman? Choynakda obke. Ha, menga qara, radioing nega gapirmaydi?

Konduktor. Kech bo'ldi, otaxon. Zerikdingizmi? Plastinkalarim bor, qo'yib beraymi?

So'laymon ota. Qo'y. Nimani qo'yasan?

Konduktor. "Yalla" bor. "Orera". "Bitlz"lar bor. "Lyana".

So'laymon ota. Ko'p ekan plastinkalaring. Ma'murjon ham bormi?

Konduktor. U kishidan ham topiladi.

So'laymon ota. O'shani qo'y. (Anvara va yigitlarga). Bir eshitib ketaylik-a? (Konduktor chiqib ketadi). O'zlaring qayoqqa ketyapsanlar?

VasKjka. BAMga.

So'laymon ota. Nima?

VasKjka. Baykal-Amur magistraliga. Katta qurilish ketyapti. O'sha yoqqa.

So'laymon ota. Ishlaganimi?

Maks. Bizni kim deb o'layapsiz, otaxon? Albatta, ishlagani. Uch oy kanikulda o'sha yokda bo'lamiz.

So'laymon ota. Bu yaxshi. Ishlaganlaring ma'qul. Ish odamni ovutadi. Ish odamni odam qiladi.

Maks. EngelKjs.

So'laymon ota. Nima?

Maks. EngelKjs ham shu fikrda bo'lgan.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi. Aytganday, oting nima?

Maks. Maks... Maxsum...

So'laymon ota. Yaxshi oting bor ekan. (VasKjkaga). Seni oting nima edi? VasKjkami?

Chol nimanidir eslab, qotib-qotib kuladi.

VasKjka. Ha, nega kulyapsiz, otaxon?

So'laymon ota. Bizning qishloqda bir qorovul kampir bor. SelKjpoda. Cho'cha Marusa. (Kulgisini to'xtatolmay) O'sha... O'shaning mushugi bor VasKjka degan. Katta, olachipor mushuk...

Maks. Buning oti VasKjkamas asli Vasil.

VasKjka. Vasil, otaxon. (Maksni ko'rsatib). Manavilar chaqirishga oson deb VasKjka qo'yishgan-de.

So'laymon ota. Vasil. Seni ham oting yaxshi ekan. Yeslikda o'zi shunaqa. Hamma bir-biriga laqab qo'yadi senlarga o'xshab.

Mening bir o'rtog'im bo'lardi. Abdurahim degan. Hech do'ppi kiymasdi. Qishin-yozin boshyalang yurardi. Shuni oti bolaligidan "Do'ppisi yo'q" bo'lib ketgan. Hech kim otini aytib chaqirmsadi.

Shu payt kупеда Ma'murjon Uzoqov aytgan "Bog'aro" ashulasi yangrab ketadi.

So'laymon ota. Jim. Eshitaylik.

Hamma qulq soladi. Ashulaning bir kupleti o'tgach, Maks chidolmaydi.

Maks (yarim ovozda). Otaxon?

So'laymon ota. Nima deysan?

Maks. Yo'talsam maylimi?

Anvara kulib yuboradi, unga qo'shilib hamma kuladi, So'laymon otaning o'zi ham.

Maks. Otaxon, ashula yaxshi. Lekin mening bir taklifim bor.

So'laymon ota. Xo'sh?

Maks. Yo'l olis. Ochko o'ynab ketaylik. To'rt kishi zo'r bo'ladida!

So'laymon ota. Ochkoying nima?

Maks. Yigirma bir. Kelishdikmi?

So'laymon ota Anvaraga karaydi. U boshini qimirlatadi.

So'laymon ota. Bo'pti. Bitta shartim bor. G'irromlik qilmaysanlar. Keyin, ashula tinsin. Bo'ptimi?

Maks, VasKjka. Bo'pti!

Ashula ko'tariladi.

Parda

Ikkinci Parda

Oltinchi Ko'rinish

Kiev yonidagi qishloq dardan biri. Panjara devorining ba'zi joylarida chirib ketgan qiyshaygan yog'och uy. Orqa tomon qayinzor.

Yelkasiga qop tashlagan So'laymon ota bilan bir bola paydo bo'lishadi.

Mitya. Galina xolaning uyi shu.

So'laymon ota. Rahmat. (Qopini yelkasidan oladi). Uy mendan ham battar shalvirab qolibdiku-a.

Mitya. Galina xola hech ko'chgilari kelmaydi. Ko'p marta yangi uy taklif qilishdi. Shu uyim yaxshi deydilar. Lekin baribir bu yil ko'chirishadi. Biz ham ko'chamiz. Pochtaning yoniga to'rt qavatli uy solishyapti. Ikkinci qavatda Galina xola, uchinchida biz turamiz.

So'laymon ota. Yaxshi. Galina xolang nima, yolg'iz o'zi turadimi?

Mitya. Ha. Erlarini nemislar osishgan. O'shandan beri yolg'izlar. Lekin biz doim qarab turamiz. Oyim ham, men ham. Maktabdan bolalar kelib turishadi. Yaqinda butun qishga yetadigan o'tin yorib berdik. Sevinganlardan rosa yig'ladilar.

So'laymon ota. Barakalla.

Mitya. Amaki. Toshkent uzoqmi?

So'laymon ota. Samolyotda olti soatli yo'l deyishadi.

Mitya. O', uzoq ekan. Demak, yetti ming kilometrga yaqin.

So'laymon ota. Qaerdan bilding?

Mitya. IL-62 soatiga to'qqiz yuz kilometr tezlikda uchadi. Meni Toshkentda o'rtoqlarim ko'p. Yer qimirlaganda chaqirganmiz.

Dam olib ketishgan. Xat yozishib turamiz.

So'laymon ota. Yaxshi.

Mitya. Amaki. Men endi o'qishga borishim kerak. Galina xolam yaqinda keladilar. Biznikida o'tirib turing.

So'laymon ota. Yo'q. Charchadim. Shu yerda turaturaman. Manavi senga.

Qopdan qurt olib beradi.

Mitya. Bu nima?

So'laymon ota. Qurt. Quritilgan qatiq. Yaxshi narsa. Qo'yning sutidan. Odamni to'q tutadi.

Mitya. Rahmat. (Keta boshlaydi).

So'laymon ota. To'xta. Oting nima edi?

Mitya. Mitya.

So'laymon ota. Mitya, uylaringda bolta, mix topiladimi?

Mitya. Ha. Nima qilasiz?

So'laymon ota. Bir kun bo'lsa ham odam butun uyda turishi kerak. Menga o'n-o'n beshta mix bilan bolta keltirib ber. Xo'pmi?

Mitya. Xo'p bo'ladi. Hozir.

P®PiCfCTbPëP± PePµC,P°PrPë.

So'laymon ota. Mana, So'laymon, Ukrainasiga ham kelding. Bu yerlarni ko'rish ham peshanaga yozilgan ekan. Kim biladi, u xotinni o'lim changalidan sug'urib olgan sening No"monjoningdir? No"monjonlar ham ko'p ekan o'zi. Toshkendayam bor, Andijondayam, Ukrainadayam bor ekan. Hammasi nobud bo'lib ketdi. Ayni qirchillama chog'ida, tog'ni talqon qiladigan, o'ynab kuladigan chog'ida nobud bo'lib ketdi. Qani endi ular hozir tirik bo'lsa?! Jannat bo'lardi bu tuproq, jannat...

P'PëCtB T>ChP»PëPrP° P±PsP»C,P°, PjPëC..., P±PëCtB T>ChP»PëPrP° PeChP·P° PeChC,P°CtBPeP± PñPëC,CII PePµP»P°
PrPë.

Mitya. Mana, amaki. Manavini oyim berib yubordilar. Sut. Muzdek.

So'laymon ota. Rahmat. Umringdan baraka top. (Ko'zani olib, sutni icha boshlaydi.) Shirin ekan.

Mitya. Oyimlar dadam ishdan kelganlarida sizni, Galina xolamni uyga chaqirmoqchilar. O'zbekcha palov qilamiz dedilar.

So'laymon ota. Rahmat. Oyingga ayt. Palovni men o'zim ertaga qilib beraman. Qip-qizil, Toshkentcha palov. Bugun Galina xolang bilan gaplashadigan gaplarimiz ko'p. Xo'pmi? Shundoq degin.

Mitya. Aytib ko'raman. Xo'p, men ketdim bo'lmasa!

So'laymon ota. Bora qol.

Mitya ketadi. So'laymon ota choponni yechib, qo'liga bolta, mix oladi va devorning singan yog'ochlarini tuzata boshlaydi.

Boltaning taq-tuqi aralash uning xirgoyisi eshitiladi.

Bog'aro qo'ysam qadam, gul g'uncha qilmay xandalur...

Parda

Yetinchi Ko'rinish

Galinaning uyi. Shinam bezatilgan xona. To'rda Galinaning kelinchaklik kunlari eri bilan tushgan surat. So'laymon ota bilan Galina xola anchadan beri gaplashib o'tirishibdi. Stol ustida non, kartoshka, tuzlangan bodring, choy, aroq shishasi ham turibdi. Galina. Bir qultum ham ichmadingiz-a, So'laymon ota?

So'laymon ota. Umrinda og'zimga olgan emasman. Qariganimda ichamanmi?

Galina. Nechaga bordingiz?

So'laymon ota. Yetmish oltiga.

Galina. Hali yosh ekansiz. Sizlarda to'qson, yuzda farzand ko'radiganlar ham bo'ladi deyishadi. Boladan qancha?

So'laymon ota. Yo'q, Zebi bilan uchta farzand ko'dik. Ikki qiz, bir o'g'il. Qizlar turmadidi. Bolaligida o'lib ketdi. O'g'limizdan fin urushida ajradik.

Galina. Urush sizning uygaga ham kirgan ekanda.

So'laymon ota. Urush kirmagan uy bormi? Bu yerlardaku jang bo'lgan, bizning tomonlarda ham shu. Qaysi hovliga qadam qo'yma, urushning izini ko'rasan.

Galina. Urush o'lsin, hammaning yuragini tilib ketdi. Zebi opam tinchmilar?

So'laymon ota. Zebi... Yigirma sakkiz yil bo'ldi Zebidan ajrab qolganimga.

Galina. Kechirasiz. Bilmabman.

So'laymon ota. Hechqisi yo'q. Uni o'g'lim bilan No"monjon ado qildi. Tursunimizdan qoraxat kelganda o'zi tamom bo'luvdi.

Galina. No"monjon... Kim biladi, balki o'sha, meni xalos etgan yigit sizning No"monjoningizdir?.. "Pravda"da muxbir bilan suhbatingiz chiqqanda juda ham suyunib ketdim. Darrov sizga xat yozdim. Endi biron daragi chiqar deb o'yladim. Yo'q, mana o'shandan beri uch yil o'tdi, na o'zidan, na uni biladiganlardan xabar bor. Lekin yuragimning bir chetida ishonch in qurib yotibdi. Mumkin emas deyman o'zimcha. Butun boshliq odam izsiz yo'qolib ketmaydiku deyman. Shundoq deymanu bedarak ketganlar esimga keladi. Hali qancha xonadonda birov erining, birov o'g'li, birov akasining qaerdaligini bilmaydi.

So'laymon ota. No"monjondan ham hech xabar kelmadidi. Xabar kelganda kim, qachon yuborganini surishtirib topsa bo'lardi.

Galinaxon, sen uni yaxshi eslab qolganmisan? Tag'in adashayotgan bo'lma?

Galina. Yo'q, So'laymon ota, adashayotganim yo'q. Hozir ham ko'z oldimda turibdi. Baland bo'y, yirik qora ko'zlar yalt-yalt qiladi.

Qirra burun, ozgina bukri bor...

So'laymon ota. Xuddi shundoq! Bu - No"monjon!

Galina. Albatta No"monjon. Adashayotganim yo'q. Tirik ekanman uni unutmayman. Odam tag'in ham, So'laymon ota, fil ekan.

Yo'q, fildan ham baquvvat ekan. Ko'z oldimda erimni osishdi...

So'laymon ota. Nega? Nima qiluvdi?

Galina. Urushning boshi edi. Nemislarning samolyotlari xuddi qora kalxatdek uchib kelishdi-yu, birpasda qishlog'imiz do'zaxga aylandi-ko'ydi. ... Shoshilinch hammani ko'chirisha boshladidi. Dmitriy shofyor edi. Mashinasida yashindek uchib keladi-yu, odamlarni ortib, yana stansiyaga ketadi. Oxirgi kelganda, qishloqning orqasida otishma boshlanib qoldi. "Bo'linglar tezroq, Galya, sen ham shoshil!" - Dmitriyning shu gapi esimda. Uydan hech nima olmadim. Faqat shohi ro'molim bor edi, oppoq, tanga-tanga gulli, shuni oldim. To'y kuni qaynonam boshimga ilib qo'ygan edi. Mitya mashinasini endi yurg'izganda, qishloqqa fashistlar kirib kelishdi. Mitya "Yotinglar!" deb qichqirdi-yu bizga, mashinani ularning ustiga haydadi. Tasir-tusir otishma boshlanib ketdi.

Mashina selKjsovetning devoriga urilib, to'xtadi. Nemislar erimning qo'llarini qayirib, olib ketishdi. "Mitya, MitenKjka!" deganimcha qoldim. Bir soatchadan keyin hammamizni selKjsovet oldidagi maydonga to'plashdi. Keyin... bizga qarshilik ko'rsatganlarning ahvoli shunday bo'ladi deb Mityani shu yerda osishdi. Ikki kun shunday osilganicha turdi. Uchinchi kunigina dorni buzishdi. O'zim ko'mdim Mityani. Bir oygina yashovdik u bilan... Turmushning mazasini ham bilmagan edim... Endi o'n sakkizga kiruvdim...

To'rtinchi kuni yoshlarni ajratib, stansiyaga olib ketishdi. No"monjoni birinchi marta shunda ko'rganman. Stansiyaga yetay deb qolganimizda, otlarning dupuri eshitildi. Partizanlar ekan. Yuragim hapriqib ketdi sevinchdan. Kimdir meni dast ko'tarib, xuddi qop tashlagandy ot ustiga o'ngarib olib qochdi. Dodlashimni ham bilmayman, yig'lashimni ham. Orqamizzdan tasir-tusir otishma. Anchadan keyin ot to'xtadi. Boshimni ko'tardim. O'rmondamiz. Tepamda qorachadan kelgan yigit menga qarab kulib turibdi. Bu - No"monjon edi. Uch kun uning otryadida bo'ldim.

Keyin meni, yana ikkita qizni partizanlar Katta yerga jo'natishdi. Yarim yil bizni o'qitishib, yana Ukrainaga, xuddi shu otryadga tashlashdi. Lekin No"monjoni ko'rganim yo'q. To'rt kishi bir topshiriq bilan ketib qaytib kelishmabdi. Qishlog'imizning chetida to'rtta noma'lum soldatning qabri bor. Omonatgina tosh ham qo'yib qo'yibmiz. Lekin kim bular - hech kim bilmaydi. Balki, No"monjon shularning orasidadir? Tag'in kim biladi? Gapingiz to'g'ri, So'laymon ota. Tirik bo'lsa daragi chiqar edi. No"monjon jim ketadigan odamlardan emas edi. Uch kun bo'ldim u bilan birga. Uch kundayoq mehrim tushib qoldi. Otryaddagilar uni hurmat qilishardi. "Chyorniy Kolya" deyishardi uni.

So'laymon ota. Chyorniy Kolya?

Galina. Ha, No'monjon deyolmay, Nikolay deyishganda. Nikolay b'T' Kolya. O'shanda No'monjonlar bo'limganda, bizni Germaniyaga haydar ketishardi...

So'laymon ota. Galya, menga haligi to'rtta qabrn ko'rsat.

Galina. Xo'p. Ertalab olib boraman. Yangi maktab qurilyapti o'sha yerga. Yarmi ko'tarilgan. Aytganday, Toshkentdan yaqinda bir xat oldim. Buni sizga keragi yo'q. Lekin qiziqda. (Galina xola o'mnidan turib shkafdan bir qancha xat oladi, orasidan bittasini tanlab, joyiga keladi). Bizda Ivan, Anton deganlar ko'p bo'ladi. Sizlarda No'monjonlar ham ko'p ekan. Mana, voenkomatdan kelgan xat. Qaysi rayon edi? Ha, Chilonzor rayoni. O'sha rayonda ham No'monjon Nazarov degan odam yashar ekan. Darrov xat yozdim. Bir yil deganda javob keldi.

So'laymon ota. Muncha kech?

Galina. Kim biladi? Olim ekan. Qandaydir ilmiy-tekshirish institutida ishlar ekan. Lekin urushda bo'limgan ekan.

So'laymon ota. Qani?

Xatni qo'liga olib ko'radi.

So'laymon ota. Menga ber shu xatni.

Galina. Oling.

Eshik ochilib, bir kampir paydo bo'ladi.

Kampir. Mumkinmi, Galina?

Galina. Keling, Ivanna xola. Keling.

Ivanna xola. Qutlug' mehmon kelibdi deb eshitdim.

Galina. Ha Ivanna xola. Tanishing. O'zbekistondan. So'laymon ota.

So'laymon ota. (o'mnidan turib ko'rishadi.) Assalomu alaykum. Yaxshimisiz? Baquvvatmisiz?

Ivanna xola. Rahmat, baquvvat bo'lib endi nima qilardim? (O'tiradi.) Uxx!.. Yoshimni yashab bo'ldim, mehmon. Xudo jonimni olaqolsayam bo'lardi endi. Qarilarni unga keragi yo'qmi deyman. Nuqlu yoshlarga yopishadi biz chetda qolib. Meni bo'lsa ko'zim to'rt osmonga, parvo qilmaydi. O'g'lingizni topdingizmi, mehmon?

So'laymon ota. Yo'q, onaxon, topmadim.

Ivanna xola. Qaerlarda bo'ldingiz?

So'laymon ota. Brestda bo'ldim, Minskda bo'ldim, Truskovetsda bo'ldim, LKjvovda bo'ldim. U yerdan buyoqqa keldim...

Ivanna xola. Qidirgan odam topadi. Topib qolarsiz siz ham.

So'laymon ota. Koshki edi topsam. Topishim kerak, onaxon.

Ivanna xola. Niyatingizga yeting ishqilib, mehmon. Men ham o'ttiz to'rt yildan beri kutaman o'g'limni.

So'laymon ota. U ham bedarak ketganmi?

Ivanna xola. Bedarak ketgan. Urushning boshida. Oxirgi xatini qirq birinchi yilning avgustida yozgan edi. Mana. (Kampir ro'molga o'rog'liq o'g'lining surati bilan titilib ketgan xatini olib ko'rsatadi). Brestdan yozgan, siz borgan joydan. Men ham Brestga borganman. Lekin topganim yo'q. Har yili o'sha yoqqa voenkomatga xat yuboraman. Javobi bitta. Brestda halok bo'lganlar orasida o'g'lingiz, Pyotr Dmitruk yo'q.

So'laymon ota. Dmitruk?

Ivanna xola. Ha, mehmon. Dmitruk, Petro Dmitruk.

So'laymon ota xonaning burchagida turgan qopini yechib, daftar oladi va uni titkilay boshlaydi.

So'laymon ota. Bu Brest degani ham katta shahar ekan. Men hamma qabristonlarni aylandim-u, lekin hamma familiyalarni yozib olganim yo'q. Oti bor-u familiyasi yo'q, familiyasi bor-u oti yo'qlarni yozib oldim. Ivanchuk bor.

Ivanna xola. Yo'q, aylanay. Dmitruk.

So'laymon ota. Hali ham Dmitrukni qidiryapman. Varlamchuk bor. Yo'q, onaxon o'g'lingizning familiyasi yo'q. Minskda gilar ichida chiqib qolarmikin?

So'laymon ota yana qopini titkilay boshlaydi. Xonaga birin-ketin o'rta yoshli ayollar, kampirlar kira boshlashadi.

Galina. Kelinglar, kelinglar. Olesya, buyoqqa o'tir. Katerina, kel, o'tir. AvdotKjya, sen buyoqqa o'tir.

So'laymon ota. Salom singillarim, yaxshimisizlar? (Ayollar u bilan so'rashishadi) Qani, bu daftarni ko'rayinch, Ivanna opa.

Ostapenko... Nikolay...

Ivanna xola. Dmitruk, aylanay, Petro Dmitruk.

So'laymon ota. Qarayapman. Dargo... Dargomijskiy... Vasilenko... Yo'q, opa, Dmitruk yo'q.

Olesya. Kotlyar yo'qmi, amaki?

So'laymon ota. Kotlyar? U qaerdan bedarak ketgan?

Olesya. Minskdan. Eringiz bedarak ketdi degan xabar kelgan Minskdan. Razvedkachi edi erim. Ivan Kotlyar.

Katerina. Medvedchi? Oleksiy MedvedKj. Brestda edi u urush boshlangandan. Ukam.

So'laymon ota. Hozir qaraymiz, Galina, yordam ber menga. Manavi daftarni sen qara.

AvdotKjya. Petrochenko Ignat. Erim. Balki uni uchratgandirsiz, otaxon? Qarang, iltimos qilaman.

So'laymon ota. Qizim, iltimos qilmasang ham qarayman. Erim degin?

AvdotKjya. Ha, erim.

So'laymon ota. Yosh turmush qurban ekansan.

AvdotKjya. O'n yetti yoshimda. O'ydan qochib ketgan edik. ZAGSdan o'tdikku, to'y qilishga ulgurolmadik. Ignat, Ignat Petrochenko.

So'laymon ota, Galina daftarlarni o'qishadi. Hamma ayollar ularni o'rab oladi.

Galina. Stepanev!.. So'laymon ota. Maxarashvili...

Galina. Klimchuk...

So'laymon ota. Vasilii...

Galina. Imomov!..

So'laymon ota. Abdurahmonov!..

Galina. Jabarzada!..

So'laymon ota. Davidyan!..

Galina. Sigizbaev!..

So'laymon ota. Petrochenko deysanmi?

AvdotKjya. Ha.

So'laymon ota. Bor. Bor Petrochenko!

AvdotKjya. Otaxon! (Uni quchoqlab o'padi.) Azizim! Voy! O'lgan ekanda? (Yig'lab yuboradi.)

So'laymon ota. To'xta. Potapenko ekan. Petrochenkomas. Kechir, qizim. Ko'zim o'tmay koldi.

Galina. MedvedKj ham yo'q. Kotlyar ham yo'q.

Hamma jim bo'lib qoladi.

So'laymon ota. Meni kechiringlar hammalaring. Bilganimda bittayam toshni o'tkazib yubormasdim. Hamma familiyalarni yozib olardim. No"monjonni qaradim ko'proq. Uni o'yladim. Kechiringlar.

Olesya. Sizda ayb yo'q, otaxon. Vanyani qidirmagan shahrim qolmagan.

Katerina. Men ham Oleksiyni ko'p qidirdim. Hech yerda yo'q.

Olesya. Petro bilan bir kunda ketgan edi Vanya.

Ivanna xola. Ikkalovining orasidan qil o'tmasdi. Maktabni ham birga tamomlashgan edi. Faqat Petroni uylantirolmadim, Shurochkani kelin qilaman degan edim. Stepanidaning qizini. Qaytmadi. Mana endi Shurochkaning o'g'li Petroday bo'ldi.

Olesya. Meni bo'lsa hech kimim yo'q. Qariqiz bo'lib o'tyapman bu dunyodan. O'lsm ko'zimmi yopadigan odam yo'q.

AvdotKjya. Biz xotinlarning taqdiri o'zi shunaqa ekan. Azob-uqubatga yaratilgan ekanmiz.

Galina. Unday dema, AvdotKjya, yoshligimiz urushga to'g'ri keldi faqat. Urush bo'limganda g'am-g'ussani bilmasdik.

Ivanna xola. Urushga qirg'in kelsin.

Olesya. Eh! Galina! Ichadiganing bormi? Quy! Yuragim yonib ketyapti!..

AvdotKjya. Menga ham quy, Galya. Otaxonga ham quy.

Galina. U kishi ichmaydilar.

Olesya. Biz bilan ichadilar. Shuncha tul qolgan kelinlari, qizlari bilan ichmay, kim bilan ichadilar?! Otaxon! O'sha qaytmaganlar uchun.

So'laymon ota. Xo'p, qizim. Mayli, ichaylik. Qaytmaganlar uchun ichaylik. Eshik tiq etsa qarab, ularni shuncha yildan beri unutmaganlar uchun ichaylik. Sizlar uchun, onaxon, siz uchun. Qizlarim, singillarim, sizlar uchun! (AvdotKjyaga.) Sen, qizim, noto'g'ri gapirding. Azob-uqubatga yaratilgan ekanmiz deding. Yo'q, senlar mardlikka, shon-shuhuratga yaratilgansanlar. Men eridan qoraxt kelishi bilan boshqa er qilib ketganlarni bilaman. Avvalgi erini kutmaganlarni, avvalgi eri qaytganda betiga qarolmaganlarni bilaman. Ana ular azob-uqubatga yaratilgan. Sen boshingni baland ko'tarib yur. (Olesyaga.) Sen ham. Sabr-toqatni, mehr-oqibatni odamlar senlardan o'rgansin.

AvdotKjya. Rahmat, otaxon.

Olesya. Rahmat.

So'laymon ota. Senlar uchun. Qani, olinglar!

Hamma ichadi. Katerina sekin ukraincha qo'shiq boshlaydi. Og'ir, g'amgin qo'shiq.

Katerina. Eyne svetit mesyachenko!.. Ne svetit nikomu.

Olesya (Ilib ketadi. Unga hamma qo'shiladi). TolKjko svetit milomu, Kak idiot do domu!..

Qo'shiq bitay deb qolganda Mitya kiradi va jim bo'lib qoladi. Qo'shiq tinishini kutadi.

Mitya. Galina xola! Meni oyim yubordilar. Mehmon amakimni olib chiqarmishsiz.

Galina. Qaydam? So'laymon ota charchaganmikinlar?

Mitya. Amaki, yuring.

So'laymon ota. Yur. Yigit so'zini qaytarib bo'lmaydi.

Mitya. Rahmat.

Hamma o'rnidan turadi.

Parda

Sakkizinch Ko'renich

To'rt noma'lum soldat qabri oldidagi kichkina sayxon yer. Olisda yarmi ko'tarilgan maktab binosi. Bino oldida quruvchilik materiallari betartib uyub qo'yilgan. Qabr oldida to'rtta quruvchi yigit domino o'ynashyapti. Kimningdir xalati, shapkasi qabr ustidagi toshga tashlab qo'yilgan. Bitta belkurak toshga tirab qo'yilgan.

Pyotr. O'ttiz besh!

Stepan. Xuddi meniki-ya, molodets!

Pyotr. O'n uch!

Ivan. Menda.

Pyotr. To'rt.

Danilo. Menga ham hech chiqadimi, yo'qmi? Yo kelishib olganmisanlar-a?

Pyotr. Qirq uch!

Danilo. Bormisan?

Stepan. Agar bugun ham sement kelmasa men bo'shab ketaman.

Pyotr. Qayoqqa borasan? Va'da berganmiz raisga. Bitirib, keyin hammamiz birga ketamiz. Yigirma bir!

Ivan. G'ishit ham atigi uch mingta qolibdi. Hayronman, ahvol shunaqa chatoq ekan, qurilishni boshlab nima qilardi bu yil?

Danilo. To'ppa-to'g'ri. Ko'rpgaga qarab oyoq uzatish kerakda.

Pyotr. Bo'ldi. Sen qoluvding gapirmagan. O'n to'qqiz!

Galina xola, So'laymon ota paydo bo'lishadi.

Galina xola. Salom, yigitlar.

Hech kim parvo qilmaydi.

So'laymon ota. Assalomu alaykum.

Yana jimlik, yigitlar o'z o'yinlari bilan ovora.

Galinaxola. (Uyalinqirab.) Eshitmadi. Mana shu qabr. Birontasining ham familiyasi ma'lum emas. (Galina xola tosh yoniga borib,

xalat bilan shapkani oladi, lekin qayoqqa qo'yishni bilmaydi.) Yigitlar, bu kimning kiyimi?

Ivan (boshini ko'tarmay). Qo'yib qo'ying joyiga.

Pyotr. O'ttiz ikki.

Ivan. Qoyil! Yana bittadan keyin chiqaman. (So'laymon ota Galina xolaning qo'lidan kiyimlarni olib, yigitlarning o'rtafiga tashlaydi). Iya! Bu qanaqasi bo'ldi? (Ivan boshini ko'taradi, boshqalar ham.) Kimsiz o'zi?

So'laymon ota. Belkurak kimniki?

Ivan. Nima edi?

So'laymon ota. Belkurak kimniki deyapman?!

Ivan. Hoy! Hoy! O'zingizni bosing! Meniki, nima bo'pti?

So'laymon ota. Olib qo'y bu yerdan.

Ivan. Og'irroq bo'ling otaxon. O'rniidan tursam, yuragingiz yorilib ketmasin tag'in.

So'laymon ota. Tur o'rningdan, tirrancha! (So'laymon ota Ivanga qarshi yuradi va yoqasidan ushlab ko'taradi. Ivan mushuk boladek shalvirab o'rniidan turadi.) Ol bu yerdan belkurakni! (Darrov belkurakni tosh yonidan olib qo'yadi).

So'laymon ota. Kimlar yotibdi bu yerda, bilasanmi?

Ivan. Imtihon olyapsizmi?

So'laymon ota. Gapir, deyapman.

Ivan. Xo'p. Urush qurbanlari... Nima bo'pti?

So'laymon ota. Dard bo'pti! Qurbanlar emas, qahramonlar yotibdi. Seni deb, meni deb jonini ayamaganlar yotibdi. Bu yerga har kuni kelib, bosh egishing kerak. Sen bo'lsang... E, satqayi odam ket. Boshliqlaring qani?

Ivan. Men qaerdan bilaman?

So'laymon ota. Topib kel.

Ivan. Iya, kimsiz o'zi? Urihasiz, do'q qilasiz?

Pyotr. Topib kel. SelKjsovetda. Sement zavodi bilan gaplashyapti.

Ivan istar-istamas ketadi.

So'laymon ota. Senlar nima qilib o'tiribsanlar?

Pyotr. Bekorchilik.

Galina. Bular hammasi quruvchilar. Ish yarmiga kelganda limit tugab, material bermay qo'yishibdi.

Danilo. Hech narsa qolmadni. Na taxta, na g'isht, na sement.

Stepan. Kichkina qurilish katta bo'lib ketdi. Raisimiz o'zi shunaqa. Ferma ham shunaqa bo'luvdi. Ikki yuz bosh molga mo'ljallab, besh yuz boshga yetadigan qilib qurib yubordik. Maktabning binosi ikki qavatli edi, endi to'rt qavatli bo'lib ketdi.

So'laymon ota. Yaxshi raislaring bor ekan. Suyunishlaring kerak.

Stepan. Shunaqa ishsiz o'tirishgayammi?

Ivan keladi.

Ivan. Yo'q. Sement berishmabdi. O'zi ketibdi zavodga.

So'laymon ota (devorga suyog'liq ikkita qopni ko'rib). Bu nima?

Pyotr. Sement.

So'laymon ota. Bor ekanku?

Danilo. Ikki qop bu. Bizga kamida ikki tonna kerak.

So'laymon ota. Ikki tonna kelguncha shu bo'lib turadi. Bekor o'tirguncha, bekor ishla deyishadi bizda. Qani kellaring!

So'laymon ota bitta qopni yelkasiga ko'tarib, yangi maktab tomon ketadi.

Ivan. Bu qanaqa odam o'zi? Qaerdan paydo bo'lib qoldi?

Galina. Mehmon. O'zbekistondan kelgan. O'g'lini qidirib yuribdi. Urush yillari bedarak ketgan o'g'li. Shu qaborda balki uning o'g'li ham yotgandir?

Pyotr (o'rniidan turadi). Turlaring. Styopa. Orqalat.

Ikkinci qopni ko'tarib u ham ketadi. Danilo, Stepan shoshib latoni yig'ishtirishadi. Ivan ham belkuragini oladi va qabr oldida birpas turib qoladi.

Galina. Xafa bo'lmaodingmi?

Ivan. Yo'q. Bilmadim, balki mening ham otam shu yerda yotgandir.

Parda

To'qqizinch Ko'rinish

Uzun kabinet. Uning jihozlari - meditsina asbob-uskunalaridan iborat. Oq xalat kiygan No"mon Nazarov deraza yonida papirosh chekib turibdi. Radiodan reportaj ketyapti. Muxbirning ovozi. Shunday qilib, hurmatli radio eshituvchi o'rtoqlar, biz sizlarni meditsinamizning muhim tarmog'ida olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirdik. Institut bilan xayrlashar ekanmiz, institut direktori No"mon Nazarovich Nazarovga yana murojaat qildik. No"mon Nazarovich, siz yaqinda onkologlarning Parijda bo'lib o'tgan xalqaro simpoziumida qatnashdingiz. Mumkin bo'lsa aystsangiz, simpozium qanday masalalarni muhokama qildi?

Nazarovning ovozi. Marhamat. Parijda bo'lib o'tgan onkologlarning oltinchi simpoziumi asosan bitta masalani - inson va uning umrini uzaytirish masalasini muhokama qildi.

Muxbirning ovozi. Bu sohada siz rahbarlik qilayotgan institutning muvaffaqiyatlari ko'p bo'lsa kerak, albatta?

Nazarovning ovozi. Albatta ko'p. Bu haqda biz simpoziumda ham gapirdik. Lekin qiladigan ishlarimiz ham oz emas. Inson haqida, uning porloq kelajagi haqida qayg'urar ekanmiz, uning har tomonlama sog'lom, umri uzoq bo'lishiga to'siq bo'lib kelayotgan har qanday onkologik kasalliklarning oldini olishimiz kerak. Bu - biz vrachlarning eng muqaddas burchimizdir.

Muxbirning ovozi. Rahmat, No"mon Nazarovich, ishlariningizga yana bir bor muvaffaqiyat tilaymiz.

Nazarovning ovozi. Rahmat.

SekretarKj qiz kiradi.

SekretarKj. Mumkinmi, No"mon Nazarovich?

Nazarov. Nima gap?

SekretarKj. Kechirasiz, sizni bir chol so'rab keldi. Anchadan beri o'tiribdi.

Nazarov. Nima ishi bor ekan? Kasalmi?

SekretarKj. Aftidan soppa-sog'. "No"monjonni ko'rishim kerak", deydi. Otchestvongizni ham aytmaydi.

Nazarov. Bandlar deng. Bilasizku, tushgacha hech kimni qabul qilmayman.

SekretarKj. Aytdim. Ko'rmagunimcha ketmayman deydi. Vajohati buzuqroq. Tag'in yelkasiga qop tashlab olibdi.

Nazarov. Tushuntiring, vaqtim yo'q.

SekretarKj. Xo'p bo'ladi.

SekretarKj tisarilib chiqib ketadi. Nazarov telefon trubkasini ko'taradi.

Nazarov. Klinikami? Kozim Kozimovich? Bemor qalay? Yana o'sha ahvol. Tushunarli. Qon quyish kerak. Nahotki shuni ham mensiz qilolmasalaring? Ha. Keyin meni xabardor qiling. Xo'p.

Shu payt eshik taraqlab ochiladi, qopini sudrab, jahl bilan So'laymon ota kiradi. Ketidan hovliqib sekretarKj kiradi.

SekretarKj. Voy, g'alati odam ekansizku?! Mumkin emas dedimku sizga! Madaniyatizingiz bormi o'zi?

So'laymon ota. Ovozingni tiy, qarqunoq! To'rt soatdan beri ushlaysan, seni madaniyatizingiz bormi o'zi?

Nazarov. Nima gap?

SekretarKj. Ko'ring, No"mon Nazarovich! Hech quloq solmaydi bu odam!

So'laymon ota. No"monjon?

Nazarov. Xo'sh? Keling?

So'laymon ota. Xo'shing nimasi?! Meni tanimadingmi?

Nazarov. Kimsiz? Yo'q, tanimadim.

So'laymon ota. Barakalla!.. O'zimam tanimaysan deb o'ylovdim. Men seni tanidim. Darrov tanidim! Ko'rdimu darrov tanidim.

Nazarov. Juda yaxshi. Keling?

So'laymon ota. Yana keling, deydi-ya! Tavba! Men... So'laymon otang bo'laman!

Nazarov. So'laymon ota?

So'laymon ota. Ha! Zarkatlik So'laymon ota!

Nazarov! E!.. Keling, ota, keling.

So'laymon ota. Taniding! Taniding! (So'laymon ota qopini tashlab, quchoqlarini yozib Nazarov qarshisiga yura boshlaydi.) Seni topadigan kun ham bor ekan! No"monjon! O'g'lim! (Nazarov uyalinqirab o'rnidan turadi, So'laymon ota uni bag'rige bosib, yig'lab yuboradi.)

Nazarov. O'zingizni bosing, ota. O'zingizni bosing.

So'laymon ota. Qanday bosay, o'g'lim?! O'ttiz yil kutdim seni. Yo'lingga ko'zlarim to'rt bo'ldi. Ko'rmay o'lib ketamanmi deb qo'rquvdim, Zebi xolangga o'xshab.

Nazarov. Kim u?

So'laymon ota. Zebi xolangni unutdingmi? Xotinimda. Har kuni qatnardiku oldingga. Quymoq qilib.

Nazarov. Ha, esladim, esladim.

So'laymon ota. Eslamay ham ko'rchi! Obbo, No"monjon-ey! Qayoqlarda seni qidirib yuribman! Sen bo'lsang ikki qadamlik joyda ekansan. Nega jimb ketding. A? Yo xafa bo'luvdingmi?

Nazarov. Yo'g'-e, nega xafa bo'lay? (Sekretarga.) Siz boravering. (SekretarKj chiqib ketadi.) Tinchmisiz, ota? O'tiring, o'tiring. (O'tiradi.)

So'laymon ota. Menga nima qilardi? Men tinchman. O'zing qalaysan?

Nazarov. Yaxshi. Ko'rib turibsiz.

So'laymon ota. Ha, ko'rib turibman. Ishlaring yaxshiga o'xshaydi. Katta odam bo'lib ketibsan. Qachon ulgurding-a? Urushdan kela solib, yana o'qishga berilibsanda, a?

Nazarov. Urushda bo'lganim yo'q. Shu yerda kerak ekanman, olib qolishdi.

So'laymon ota. Shundoq de?.. Biz bo'lsak... Zebi xolang bilan urushdasan deb yuribmiz... Yaxshi, yaxshi. Demak, o'sha ketganiningcha shu yerdasan?

Nazarov. Ha. Yo'q, uch yil Moskvada o'qib keldim.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi. Bola-chaqa qilganmisan?

Nazarov. Ha. Ikki o'g'il, bir qizim bor. Katta o'g'lim institutni bitirdi. U ham menga, onasiga o'xshab doktor bo'ldi. Bultur uylantirdik.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi. Kelin qaerlik?

Nazarov. Shu yerlik. Birga ishlaymiz.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi... Biz bo'lsak... Zebi xolang bilan seni kutdik. Ko'zimiz eshikda bo'ldi har kuni. Yaxshi, yaxshi.

Nazarov. Xolam qachon qazo qildilar?

So'laymon ota. Yigirma sakkiz yil bo'ldi.

Nazarov. Kasalmidilar?

So'laymon ota. Kasal? Yo'q... Kasal bizda nima qiladi? Qarilik.

Nazarov. Ha, qarilik, o'lim har kishining boshida bor. Choy buyuraymi?

So'laymon ota. Shunday qilib, bola-chaqalikman degin, katta o'g'limni uylantirdim degin?

Nazarov. Ha, kichkinasining ham bo'yi yetib qoldi.

So'laymon ota. Yaxshi, yaxshi. Ishqilib, o'zingdan tinchigan ekansan, o'zingga to'q ekansan... Men bo'lsam, ming xil xayolda yuribman. Kutdim avval, keyin halok bo'lgansan deb o'yladim. Urush bo'lgan joylarda qabringni ham qidirdim... Yana kutdim. Keyin o'lib qolsam nima bo'ladi deb yana qidirdim... Sen bo'lsang tirik ekansan. Tirik... Menga qara, No"monjon!.. Nega xabar bermading-a? Zebi xolang seni yaxshi ko'rib qoluvdi. O'zi seni uylantirmoqchi edi...

Nazarov. Ishchilik, ota. Keyin har holda... judayam...

So'laymon ota. Har holda begonamiz demoqchimisan?

Nazarov. Unchalik emasku, lekin...

So'laymon ota. To'g'ri. Biz kim? Qishloqi bir odam...

Nazarov. Unday demang, ota.

So'laymon ota. Gapimga quloq solma. Qarilik. Qari odamning ko'ngli bo'sh bo'ladi. Bitta gap bilan dili vayron, bitta gap bilan

boshi ko'kka yetadi. Ezma bo'lib qoladi menga o'xshab.

Nazarov. Hechqisi yo'q. Xo'sh, eshitaman, otaxon?

So'laymon ota. Eshitaman, deysanmi? Xo'p, eshitaman desang... Men bir ish bilan keluvdim.

Nazarov. Marhamat, agar qo'lidan kelsa...

So'laymon ota. Yo'q, yo'q, qo'rhma, hech narsa so'rabb kelganim yo'q.

Nazarov. Nima deyapsiz o'zi? Qo'rqqanim yo'q.

So'laymon ota. Ko'zing aytib turibdi, qo'rqb ketding. Qo'rhma. Qari bo'lsam ham, hali

birovga tashvishim tushgani yo'q. Esingdami, urushga ketayotganingda menga ikkita qo'y tashlab ketuvding.

Nazarov. Qo'y?

So'laymon ota. Ha. Ikkita hisori qo'y.

Nazarov. E, bo'ldi, bo'ldi. Esimga tushdi. Xo'sh?

So'laymon ota. Shu qo'ylar to'rt yuzta bo'lgan.

Nazarov. To'rt yuzta?

So'laymon ota. To'rt yuzta. Qishloqning eng oldi qo'ylari shu qo'ylar. Kolxoz bozor narxida pul berdi. Roppa-rosa o'n ming so'm.

Istasang borib, qo'ylaringni ol. Kolxoza baribir.

Nazarov (hayron). Ota, bu axir... bu axir katta pulku?

So'laymon ota. O'ttiz yilda kichkina pul bo'larmidi?

Nazarov. Obbo otaxon-ey... Obbo siz-ey! Qo'ylar hech xayolimga kelgani yo'q. Lekin doim sizni, Zebi xolamni o'yladim. Ko'p marta otlandim borib kelay deb. Lekin ana boraman, mana boraman bilan vaqt tez o'tib ketar ekan, shuncha yil o'tib ketibdi. Lekin baribir borardim. Sizni bir ko'rib kelardim.

So'laymon ota. Rahmat. Mana ko'rding endi.

Nazarov. Ha. Boshim osmonga yetdi, ota. Hozir bunday qilamiz. Keliningizni chaqiraman. Uyga borsin. Bir eslashib, yurakni bo'shatamiz. Nevaralaringizni ko'rasisiz. Ikkita qo'y shuncha bo'lib ketadi deb hech o'ylamagan edim. Obbo, So'laymon ota-ey, So'laymon ota-ey...

Telefon trubkasini oladi.

So'laymon ota. To'xta.

Nazarov. Yo'q, yo'q! Uyga bormasangiz bo'lmaydi.

So'laymon ota. Borolmayman.

Nazarov. Nega?

So'laymon ota. Hozir ketaman. Ishim bor.

Nazarov. Qanaqa ish? Birga qilamiz!

So'laymon ota. Yo'q, bu ishni sen qilolmaysan, senga bu ishni topshirib bo'lmaydi. Menga qara, shu ikkita qo'y tashlab ketganing rostmi? Menga tashlab ketganmiding?

Nazarov. Ha. Hozirgidek esimda turibdi.

So'laymon ota. Hozirgidek degin... Qo'y esingda turibdi-yu, butun boshli odamni unutibsanda... Yaxshi... yaxshi... Bilasanmi, hamma qo'y ham ko'payavermaydi. Sening qo'ylaring ko'paymadni. To'rt yuzta qo'yning egasi boshqa odam. Kievda u. Har yoz ziyyarat qilib kelaman. Uchta inisi bor. Bir-biridan yaxshi yigitlar.

Nazarov. To'xtang, to'xtang! Hozir seniki to'rt yuzta bo'lgan deyayotuvdingiz. Endi egasi boshqa odam deysiz. Bu qanday bo'ldi?

Mening mollarimni birovga berishga haqqingiz yo'q. Shikoyat qilaman!..

So'laymon ota. Shikoyat? Kimga? Sudgami? Undan nariga bor.

Nazarov. Iyya, qanaqa odamsiz o'zi? Urushga ketayotib, ikkita qo'y berib ketganim rostku, axir?

So'laymon ota. Endi o'zingga kelding. Ikkita qo'y berib ketganing rost. O'ttiz yildan keyin qo'ylaring harom o'ldi, desam ham bo'lardi. Lekin So'laymon ota g'irrom odam emas. Mana, seni haqing shu. (So'laymon ota ikki yuz so'mlikni Nazarovning oldiga tashlaydi.) Oramiz ochiq endi. Istasang, qishloqqa borib qo'ylaringni olib kel. Hamma biladi. Bo'yning qizil lenta boylab qo'yanman.

So'laymon ota keta boshlaydi.

Nazarov. Ota! To'xtang!

So'laymon ota. Men senga ota emasman. O'sha o'ttiz yil oldin mening oldimdan urushga ketgan yigitga otaman. Bu dunyoda ham, u dunyoda ham. Senga emas!

Chiqib ketadi. Nazarov xayol surib koladi. Telefon jiringlaydi.

Nazarov. Eshitaman. Nima? O'ldi? (U trubkani qo'yadi. Ko'zi pulga tushadi. Trubkani ko'taradi.) Klinika. Ha, bu menman. Boyagi o'lgan yigitning adresini bering. S-20, uy nomeri 31, 12-kvartira. Rahmat.

Selektor tugmasini bosadi. Buyoqqa kiring. SekretarKj kiz kiradi.

SekretarKj. Eshitaman.

Nazarov. Manavi pulni oling. S-20ga borasiz. Bilasizmi? Yaxshi. 31-uy, 12-kvartirada yolg'iz bir ayol yashaydi. Shunga berasiz. O'g'lingizning cho'ntagidan chiqdi, deysiz. Xo'pmi?

SekretarKj. Xo'p.

Nazarov. Boring.

U shunday deb sekretarni chiqarib yuboradi va og'ir o'yga toladi.

Parda

O'ninch Ko'rinish

Vokzal oldidagi bog'. Olataroq skameykada Anvara hayotdan umid uzgan odamdek xomush o'tiribdi. Parovoz, mashinalarning chinqirishi qulog'iga kirmaydi. Yonida tugun... So'laymon ota paydo bo'ladi. Anvarani ko'rib to'xtaydi, tanigandek bo'ladi, tikiladi.

PÝChP»P°PNøPjPsPS PsC,P°. PÝPµPSPjPëCÍP°PS?.. PhC,PëPSPi PSPëPjP° CÍPrPë? PhP°CJBCBëPiP°C,PjPë?

Oldiga boradi.

Anvara. Salom alaykum, ota. (O'z ahvoldidan uyalinqirab o'rnidan turmoqchi bo'ladi.)

So'laymon ota. O'tiraver. O'tiraver, obbo, qizim-ey!.. Tog' tog' bilan uchrashmaydi-yu, odam odam bilan uchrashadi deyishgani rost ekan-a, Ma'ripat? Ma'ripatmidi, oting?

Anvara. Endi buning ahamiyati yo'q. Nima desangiz deyavering. (Ko'ziga yosh oladi.)

So'laymon ota. Iyya! Bu nima deganing? Esing joyidami? Ot degan narsa, nom degan narsa nimaligini bilasanmi o'zing. Nom bu zot, avlod... Yaxshini yomondan, yomonni yaxshidan ajratadigan muhr. Ota-onha farzandiga nom qo'yari ekan, butun orzu-umidini tikadi unga. Umri qiyinchilikda o'tgan odam o'g'il ko'rsa Baxtiyor, qiz ko'rsa Baxtgul qo'yadi. Ikki mahalla nariga yurmagan odam yaxshi niyat bilan o'g'lini Yo'lchivoy deb ataydi. Men ko'rman yollarni u ko'rsin deydi. Hamma gap shundaki, birov o'z ismiga arziydi, birov arzimaydi.

Anvara. Men Anvaraman.

So'laymon ota. Anvara... Bo'ldi, esimga tushdi. Yaxshi noming bor ekan. Bilasanmi, bu nima degani? Anvara, Anvar, Munavvar... nur degani, yorug'lik degani. O'zim ham noming shunaqa bo'lsa kerak devdim... Umringni bir odamning baxtiga bag'ishlabsanmi, yo'lini yoritibsanmi, sen chindan ham Anvarasan... Aytganday, ering... nima edi haligi... olimlarning olimi bo'ldimi, ziyofatlarining yaxshi o'tdimi? (Anvara yig'lab yuboradi.) Ha, nima bo'ldi, nega yig'layapsan? Yuraging to'lib turganini sezuvdim. Nima bo'ldi?

Anvara. Ahmoq ekanman, ota. Ko'r ekanman!..

So'laymon ota. Ha, nega?

Anvara. Men bu yerda bir tiyin o'zimga sarf qilmay, topgan pulimni yuborib tursam, hatto taqinchoqlarimni sotib, qynalmasinlar desam, o'qishni tashlab, ishlasam!.. (O'zini tutolmay yig'laydi.) U kishi... U kishi uyoqda uylanib olgan ekanlar! Nima qilaman endi, ota? Odamlarning yuziga qanday qarayman?!

So'laymon ota. E, ahmoq! E, iblis! Ko'r ekanku ering, a? Odam emas ekanku?! O'zingni bos, yig'lama. Sadqai yig'i ketsin ering, o'zingni bos. Meni aytdi deysan, hali oldingga yig'lab keladi.

Anvara. Kerak emas, endi uni ko'rgani ko'zim yo'q.

So'laymon ota. Barakalla! Mana bu gaping joyida. U tekinxo'rni nima qilasan? Yoshisan, husning binoyiday. Aqling joyida. Hali manaman degan yigitlar seni axtarib keladi. Ana o'shanda ehtiyot bo'l, nasib qilganiga tegu tekinxo'r qilib qo'yma. Baravar ishlab, baravar yedir.

Anvara. Menga hech kim kerak emas endi. To'ydim.

So'laymon ota. Mana bu gaping ahmoqlarning gapi. Yashash kerak. Do'st-dushmanning oldida boshingni baland ko'tarib yur. Sen kuyma. Seni xor qilganlar kuysin. Ishlar ekansan, ishlagin. Ishda hamma narsa unut bo'ladi.

Anvara. Men unga ishonuvdim. Mening hech kimim yo'qligini, yetim o'sganimni bilardi. Ota, shunaqayam qahri qattiq odamlar bo'ladimi, a? (Yig'laydi).

So'laymon ota. Bor, qizim, bor. Hali shunaqa odamlar borki, ko'zini lo'q qilib seni aldaydi. Bittani aldadimi, hammani aldaydi. Dunyoni sel olib ketsa to'pig'iga kelmaydi. O'zim bo'lay deydi. Mardning choponini kiyib, nomardlik qiladi. Tuzingni ichib, tuzlug'ingga tupuradi. Lekin ularni pisand qilma. Ezilganiningko'rsatma. Ko'rsatdingmi, battar ezishadi. Bo'yningni g'oz tut. Anvara (istehzo bilan kuladi). U kishining ustozlari bor ekan. Biram yaxshi odam! Xuddi sizga o'xshaydi. O'sha kishi ziyofatda... Ziyofatni restoranda qildik. Vistavkaning ichida. Men qilgan ovqatlarga hamma hayron qoldi, shefpovar ham. Dimlama, xamiri shoyidek yupqa manti, qovurma varaqi, asal solingen quştili, muncha-muncha qovurg'a solingen no'xat sho'rva... Hech narsa qolmadni, maqtab-maqtab yeyishdi. O'sha kishi - ustozlari mening shunaqa hayot yo'l doshim bo'lganida o'n marta doktor bo'lardim dedilar. (Yig'lab yuboradi yana.) Hayotingiz, hayotingiz yo'l doshi... Anvaraxon uchun qadah ko'taraman dedilar. Qarsak bo'lib ketdi. Hamma ichdi.

So'laymon ota. Barakalla, barakalla. Ering doktor bo'l mabdi, sen doktor bo'lib san.

Anvara. Ertasiga bildim xotinlari borligini. Ayolning o'zi kelib aytdi. Meni kechirasiz, agar sizning shunaqa yaxshi odamligingizni bilganimda kelmasdim dedi. To'rt yil bo'ldi turmush qurbanimizga dedi. To'rt yil bo'lgan ekan (yig'laydi). O'g'illari bor ekan.

Ko'rdim. Biram chiroqli. Otasiga o'xshaydi. Men bo'lsam... yuraveribman... yuraveribman.

So'laymon ota. Yig'lama, qizim. Hali yana turmush qurasan. Farzand ko'rasan. Xafa bo'lma. Istasang yur men bilan, ota-bola bo'lamiz. Katta bog'im bor. O'zim o'qitaman seni.

Anvara. Rahmat, ota (o'rnidan turadi).

So'laymon ota. Ha, qayoqqa?

Anvara. Uyga, ertaga ishga borishim kerak.

So'laymon ota. Mana bu gaping joyida. Hamma g'uboring ishda chiqib ketadi. Ishlash kerak.

Anvara. Aytgandek, o'g'lingizni topdingizmi?

So'laymon ota. Ha, topdim... Qabrini topdim.

Anvara. Kechiring, ota. Ko'nglingizni g'ash qildim. Men tirik bo'lsalar kerak deb umid qiluvdim.

So'laymon ota. Tirik bo'lsa, xabar qilardi. Uyga qaytardi. U o'lgan. Uchta o'rtog'i bilan jangda halok bo'lgan. Xayr, qizim, yo'lingdan qolma. To'xta, menga eringning adresini ber.

Anvara. Nima qilasiz?

So'laymon ota. Basharasiga bir tupuraman.

Anvara. Hojati yo'q, ota, endi u menga kerak emas.

So'laymon ota. Barakalla, bo'lmasa o'zingning adresining ayt. Yaxshisi yozib ber, mana qog'oz. (So'laymon ota qiyig'in yechib, bir necha konvertlarni oladi. Bittasini kalta qalam bilan ayolga uzatadi. Mana shunga yoz. Qaytganimda kiraman. Xo'p desang, Zarkatga olib ketaman. Bo'lganmis, Zarkatda? E, jannati qishloq. Bir yog'i tog', qishin-yozin tepasi qor. Bir yog'i suv, o'rikzor, olmazor, uzumzor... Bahring ochiladi. A, nima deysan?)

Anvara. Rahmat. Qaytishingizda kiring, ota.

So'laymon ota. Albatta kiraman. (Konvertni yana qiyig'iga o'raydi.) Sen o'ylab ko'r, xo'pmi?

Anvara. Xo'p, xayr, ota...

So'laymon ota. Xayr, omon bo'l. Ezilma ko'p. Tinchlik, omonlik bo'lsa, baxtingni topasan. Soyangga salom berishadi hali. Qari cholga ishon, qizim.

Anvara. Rahmat, ota. (Ketadi. Chol orqasidan qarab qoladi.)

So'laymon ota. Bechora... Yaxshi juvon ekan. Xuddi Zebining o'zi.

This is not registered version of TotalDocConverter.

Gulomara qurilishiga, shayx Xonacha, 08/07/2013-yilda.

Zebi xola - So'laymon otaning xotini, 45-50 yoshlarda.

Nazarov - vrach, 45-50 yoshlarda.

Sodiq - aspirant, 30 yoshlarda.

Anvara - 30 yoshlarda.

Mamarasul - ferma mudiri, 35-40 yoshlarda.

Zarifa - Sodiqning xotini, 22-25 yoshlarda.

Zarifaning ota-onasi, kупедаги югитлар, Galinaning qishlog'idagi ayollar, quruvchi югитлар, selKjsovet raisi, So'laymon ota kolxozidagi pravlenie a'zolari va boshqalar.

Parda

O'n Birinchi Ko'rinish

Kiev yonidagi to'rtta noma'lum soldat qabri. Olisda yarmi qurilib bitgan maktab binosi. So'laymon ota qabrlar oldida turibdi. So'laymon ota. Kimsizlar? Ota-onalaring kim? Qaerdansanlar? Uylaringda kimlar ko'z yoshi to'kib o'tiribdi, yo'llaringga intizor bo'lib? Kimlar menga o'xshab izlaringni qidirib yuribdi? Qaysi biring o'ris, qaysi biring gurji, qaysi biring qozoq? Kim bo'lmalaring, hammalaring mening farzandlarim. Bittang No"monjon, uchtang uning do'stlari. Tirik bo'lganlaringda diydor ko'rishardik. Senlarni ko'rib, Tursunalimni ko'rgandek bo'lardim, butun Zarkatga osh berardim, Ma'murjonning shogirdlarini chaqirardim. Odamlar qiziq, molning egasini qidiradimi, kerak bo'lsa o'zi keladi deyishardi. Gap moldami? Odam kerak odamga. O'sha doktor югитни odam deb kutgan edim. Meni ham odam deganda o'ttiz yil ekanu yana o'ttiz yil kutardim. O'g'lim derdim. Senlar o'g'il menga. Bittang No"monjon, qolgan uchtang uning do'sti. Joylaring jannatda bo'lsin. Endi sizlar yolg'iz emas. Har kuni darsga qo'ng'iroq chalinganda senlarni eslashadi. Kelib, ziyorat qilishadi. Men ham eslayman. G'ulomcho'loq ham. Senlar dilimda bo'lasanlar doim. Yana kelaman. Har bahor kelaman. Yonma-yon o'tirib, qishdan omon-eson chiqqanimizni gaplashamiz. Bir-birimizga umr, tinchlik-omonlik tilaymiz. Muzdek peshanalaringga yuzimni qo'yib, senlarni topganimdan suyunaman, ko'nglim taskin topadi...

Galina xola paydo bo'ladi.

Galina. Hozir kelishadi. (So'laymon ota cho'chib tushadi.)

So'laymon ota. Labbay?

Galina. Hozir kelishadi. Raisning o'zi ham keladi.

So'laymon ota. Juda yaxshi. Ko'nglim endi tinchidi, Galina. Sen bilan mening No"monimiz shu. Halok bo'lgan hamma No"monjonlar shu yerda. Ko'nglim tinchidi, endi o'lsam armonim yo'q.

Quruvchi югитлар va kolxoz raisi kelishadi.

Rais. Salom So'laymon ota, qalay yotib turdingiz?

So'laymon ota. Rahmat.

Galina. Kechasi bilan mijja qoqqanlari yo'q.

Rais. Tushunaman. Ota, bizni kechiring. Qo'limiz kaltalik qilib qoldi. Bu югитlarga hali shunday haykal quraylikki, hamma hayron qolsin.

So'laymon ota. Bilaman. Lekin men boshqa sabab bilan sizlarni bu yerga kelishinglarni iltimos qildim. Biz Galya bilan... Galina, yaxshisi o'qib ber. (Galina xola cho'ntagidan qog'oz olib, o'qiy boshlaydi.)

Galina. "Biz, No"monjon Nazarov va uning uchta jangovar do'sti, qabrimiz yonidagi maktab qurilishiga ikki yuzi kam o'n ming so'm berishga qaror qildik. Unda o'qiydigan bolalar urushni bilishmasin, baxtli bo'lishsin. Mabodo kimda-kim urush ochib qolsa, bizdek botir bo'lishsin. No"monjon Nazarov va uning do'stlari".

So'laymon ota. Mana o'sha pul. Roppa-rosa ikki yuzi kam o'n ming (qiyiqchaga o'rogliq pulni raisga uzatadi). Chinakam odamlar o'lgandan keyin ham yaxshilik qiladi. Bular chinakam odamlar, xatni Galina bilan ikkalamiz yozdik. Aminman, No"monjon tirik bo'lganda shunday qilardi. Uning do'stlari ham, oling, rais!

Rais. Rahmat! Rahmat, So'laymon ota. (Cholni bag'rige bosadi).

So'laymon ota. (Galinaga). Mana, ishlar bitdi, Galina. Men ham endi ketay. Bitta dilgirom berib yuborsang. "O'zbekiston, Zarkat qishlog'i. Tolzordagi choyxona mudiri G'ulomcho'loqqa. Menkim So'laymon Yo'ldoshev dilgiromni berdim shul mazmundakim, No"monjonni topdim. Uch bahodir do'sti bilan Kiev yonida tinch yotibdi. Haykal o'rnatishibdi, ularning qabri ustiga. Butun Ukraina ularni bilar ekan. Endi tinchman. Sen ham tinch bo'l. Nevarang Mamasoliga endi javob ber, o'qisin. O'zim yordamching bo'laman. Yog'och oyog'ing bilan qiynalma. Ma'murjonning plastinkasini qo'yib, ikkalamiz kelgan-ketganning ko'nglini olamiz, oshna-og'aynining g'iybatini qilib o'tiramiz. Abdullajonga, meni so'raganlarning hammasiga salom ayt. Ko'rishguncha xayr. Qiyomatli do'sting So'laymon".

Parda

1974